

**OLIY O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”**

Ijtimoiy – iqtisodiy fakul’tet dekani  
t.f.n., dots. N.Dexqonov  
«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 yil

5610400 – Ijtimoiy madaniy faoliyat  
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi  
**Tojimirzayeva Hosiyat Dilmurod qizining**

**“SOG`LOM AVLOD MUSTAHKAM JAMIYAT ASOSI”**  
**mavzuidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

“Himoyaga tavsiya etildi” BMI rahbari: t.f.n. O.Topildiyev  
Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasi  
mudiri \_\_\_\_\_ t.f.n. O.Topildiyev

“\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2017 yil.

**Namangan-2017**

## **Mavzu: Sog`lom avlod mustahkam jamiyat asosi**

### **Reja:**

#### **Kirish**

#### **I-BOB. Sog`lom avlodni tarbiyalashda oila muhiti va ota-onalarning mas`uliyati**

- 1.1. Sog`lom avlodni tarbiyalash masalasining dolzarbliji va unda ota-onalarning mas`uliyati.
- 1.2. Sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o`rni.

#### **II-BOB. Bugungi globallashuv davrida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashning o`ziga xos shart-sharoitlari**

- 2.1. O`zbekiston Respublikasi davlat siyosatida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalash masalasi.
- 2.2. Bugungi globallashuv davrida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta`lim muassasalarining o`rni.

#### **Xulosa**

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati**

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, qonun ustuvor bo‘lgan huquqiy demokratik davlat qurishdek oliy maqsad sari intilmoqda. Mustaqillik mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda xalqimizning ma’naviy uyg‘onishi uchun to‘la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiylar madaniyatimiz tiklanib, inson omili oliy qadriyat nufuziga ega bo‘ldi. Bu o‘rinda mamlakatimizda oila manfaatlarini himoya qilish borasida hukumatimiz tomonidan olib borailayotgan izchil siyosat sog‘lom avlodni tarbiyalashda ota-onalarning mas‘uliyati dolzarb ahamiyatga ega. Bu o‘rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning “Ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlarni izchil olib borish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu o‘rinda oilada ota-onalarning farzand tarbiyasidagi ma’suliyatini oshirish dolzarb masaladir”<sup>1</sup> degan fikrlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darxaqiqat, oila, bu katta dargoh va u bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri bilan shakllanajak muqaddas-qo‘rg‘on. Oilada inson kamol topadi. Millat sha’ni, g‘ururi va faxri esa ana shu inson kamoloti bilan bog‘liq. Shu bois, mamlakatimizda oilaga va sog‘lom avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilib davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom avlodni shakllantirish maqsadida dunyo hamjamiyati tomonidan yangi tajriba sifatida e’tirof etilgan uch bosqichli yagona tizim «Barkamol avlod», «Umid nihollari» va «Universiada»kabi sport o‘yinlari tashkil etilganligini alohida ta’kidlash lozim. Bu tizimning tasdig‘i sifatida o‘tgan yillar mobaynida xalqaro sport musobaqalarida mamlakatimiz yoshlari 1280 ta oltin, 1170 ta kumush va 1590 ta bronza medal sohibi bo‘lganligi, Xitoyda bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida badiiy gimnastika bo‘yicha O‘zbekiston jamoasi qancha-qancha yirik davlatlar vakillari orasida yuksak shohsupaga ko‘tarilganligi, o‘smirlar terma jamoasi Osiyo

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i nutqi // Xalq so‘zi, 2016 yil 7 dekabr

qit'asida g'olib bo'lib, Meksikada bo'lib o'tgan jahon championatida qatnashganligi, Xitoyda bo'lib o'tgan XVI Osiyo o'yinlarida 11 ta oltin, 22 ta kumush, 23 ta bronza medaliga sazovor bo'lgani buning yorqin dalilidir<sup>1</sup>.

Ayniqsa, 2016 yilda Braziliyada bo'lib o'tgan 31-yozgi Olimpiya o'yinlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasi sportchilari 13 ta medalni qo'lga kiritishdi. Shulardan 4 tasi oltin, 2 ta kumush va 7 tasi bronza bo'lib mustaqil O'zbekiston tarixida medallar jamg'arish borasida rekord natija qayd etildi<sup>2</sup>. Bu esa yurtimizning barqaror suratlar bilan rivojlanib, barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishayotgani, yurtimizdagi tinch, osoyishta va faravon hayot, avvalo sog'lom avlodni tarbiyalash borasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning yorqin namunasidir. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatmizda 1500 ta eng zamonaviy, barcha yoshlar foydalanishi mumkun bo'lgan bolalar sporti ob'yekti barpo etilganligi, 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar 2008 yildagi 29,2 foizdan 2011 yilda 34,9 foizgacha, jumladan qiz bolalar o'rtasida 24,1 foizdan 31,4 foizgacha oshganligi, 2005-2011 yillarda mutlaq sog'lom bolalar soni mamalakat bo'yicha 52,7 foizdan 62,9 foizgacha o'sganligi, surunkali kasallikkarga chalingan bolalar soni esa keskin kamayganligi bu sohadagi ishlarning samarasidir. «Bolalarni asraylik» xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jahon reytingida o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatilayotgan davlatlar orasida O'zbekiston 9-o'rinni egallashi yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarning yana bir bor tasdig'idir<sup>3</sup>. Darhaqiqat farzandlarimiz - bizning kelajagimiz. Xalqimiz ertasining qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liqdir.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliji.** Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, ayniqsa, yosh oilalarining huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat

<sup>1</sup> <http://sharh.uz/munosabat/item/158-barkamol-avlod-yoshlar-kamolot>

<sup>2</sup> <http://olamsport.com/oz/news/ozbekiston-rio-2016-olimpiadasida-yakunlar-statistika-va-tahlil>

<sup>3</sup> <http://manaviyat-kuzgusi.uz/main/155-barkamol-avlod-yurt-tayanchi-millat-kelazhagi.htm>

jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam sog‘lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida mamlakatda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yurtimizdagи har bir inson uchun Vatan tushunchasi avvalo, oiladan boshlanadi..."<sup>1</sup> deya ta'kidlab, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishda oilaning ahamiyati beqiyos ekanligini alohida ko‘rsatganligi ham mavzuning nihoyatda dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1998 yilni «Oila yili» deb e’lon qilinishi natijasida mamlakatdagi har bir oila muammolariga alohida e’tibor qaratgan bo`lsa, 1999 yilni – «Ayollar yili», 2000 yilni – «Sog‘lom avlod yili», 2001 yilni – «Onalar va bolalar yili», 2002 yilni – «Qariyalarni qadrlash yili», 2003 yilni – «Obod mahalla yili», 2004 yilni – «Mehr-muruvvat yili», 2005 yilni – «Sixat-salomatlik yili», 2006 yilni – «Homiylar va shifokorlar yili», 2007 yilni – «Ijtimoiy himoya yili», 2008 yilni – «Yoshlar yili», 2010 yilni – «Barkamol avlod yili», 2012 yilni – «Mustahkam oila yili», 2013 yilni – «Obod turmush yili», 2014 yilni – «Sog‘lom bola yili», 2015 yilni – «Keksalarni e’zozlash yili», 2016 yilni – «Sog‘lom ona va bola yili», 2017 yilni – «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e’lon qilinishi va Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi», Oliy Majlis Senatining 2007 yil 1-dekabrida ma’qullangan «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun va boshqa qator normativ hujjatlarning barchasida sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi.

Ko`rinib turibdiki, sog‘lom, barkamol avlod tarbiyasi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. “Kelajak bugundan boshlanadi” va tarbiya masalasiga bugun e’tibor berilmasa, ertaga kelajak boy berilishi mumkin. Shuning uchun, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalashga

---

<sup>1</sup> <http://www.press.uz>.

intilish uchun oilada ota-onas, mahallada qo`ni-qo`shni, ta`lim muassasalarida murabiylar mas`uldirlar. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o`z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko`rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi. Bola tug`ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi va oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola tarbiyasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Bola tarbiyasida ayniqsa ota-onalarning mas`uliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda yangilanish jarayoni kechadigan hozirgi davrda yuksak ma`naviyatli, axloqiy yetuk, intellektual rivojlangan, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan sog`lom, mustaqil fikriga ega shaxsni shakillantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Xalqimiz qadim-qadimdan tarbiyaga, ilmu hunarga alohida e'tibor berib kelgan. Ota-onalik va farzandlik burchlari hamisha aziz deb belgilangan. Tarbiya jarayonida ishtirokchilar sa`yi-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan “Oila, mahalla va maktab hamkorligi” Konsepsiysi yoshlarni ma`naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturiamal bo`ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta`lim va tarbiya to`g`risidaga me`yoriy hujatlar, jumladan O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risi”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, sog`lom mustaqil fikrlovchi yosh kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va jamoatchilik nufuzini yanada yuqori pog`onaga ko`tarishda muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Yosh avlodga o`zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg`ularini, xalqimizning ko`p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo`yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish bitiruv malakaviy ishini dolzarbligini oshiradi. Chunki oila-jamiyatning asosiy bo`g`inidir. Darhaqiqat, oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg`or vakillari

diqqat-e'tiborda bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamoloti uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlari - "Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamchihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, oila, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi"<sup>1</sup> muhim ahamiyatga ega.

Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot yo'nalishlarining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Resublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar oila, maktab va mahalla, hamkorligi yo'nalishidagi bola tarbiyasidagi oila, ota-onas, mahalla, maktab va jamoatchilikning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tadbiq etishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

Bu o'rinda "Bir bolaga yetti mahalla ota-onas"<sup>2</sup> degan naqlidan kelib, barkamol avlodni tarbiyalash jarayonini amalga oshirish borasida oila va mahallaning oldida katta vazifalar turadi. Mahalla faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan xodimlaridan iborat tuzilgan muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari faoliyatlari ta'lim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu jamoatchilik kengashlari mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi, bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazaridan kelib chiqib unumli tashkil etish maqsadida ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalarni uyushtirib borishda o'z orniga egadir.

Afsuski, bunday sanalarni bayram qilish, tadbirlar o'tkazish har doim ham amalga oshavermaydi. Bu esa oila, maktab va mahalla hamkorligining zaiflashib borayotganligi, ko'pincha "Sen menga tegma, men senga tegmayman" qabilida

---

<sup>1</sup> Karimov I.A., Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – Тошкент: O'zbekiston, 1997. – B. 15

<sup>2</sup> <http://uzbaby.uz/bog-cha-davri/tarbiysi/773-farzand-tarbiysi-nimadan-boshlash-kerak>

yurishlaridan esa ko‘pgina yoshlar o‘rtasida, oilalarda, turli xil muammolar, salbiy holatlarning ro‘y berishiga olib kelmoqda. Birgina giyohvandlik, diniy aqidaparstlik orqali ekstrimistik oqimlarning kirib kelishi, ichkililikbozlik, kashandalik holatlarining ko‘payishi ham yoshlar tarbiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi, albatta. Bu esa bizning mentalitetimizga yot bo‘lgan holatlardir.

Shunisi e’tiborliki, jahonning birorta mamlakatida oila va uning muammolarini bu qadar izchil va keng qamrovli ilmiy asosda o‘rganish va yechishga kirishilganligini tarix bilmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zbek xalqi oilaga, milliy tarbiyaga azal-azaldan katta mas’uliyat bilan qarab kelganligini va bu masala hamisha dolzarbligicha qolishini ta’kidlab bunday degan edi: «Ma'lumki, o‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan»<sup>1</sup>.

Shu nuqtai-nazardan ko‘rilganda, sog‘lom avlodni tarbiyalash va unda ota-onalarning mas’uliyatini oshirishga alohida ahamiyat berish dolzarb masala hisoblanadi.

Shuningdek, oila ijtimoiy hodisa sifatida insoniyatning ulug‘ kashfiyoti sanaladi va sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi - milliy farovonlik asosidir. Kishilik jamiyatida oilaning paydo bo‘lish tarixini, ijtimoiy mohiyatini, axloqiy-tarbiyaviy rolini va boshqa xususiyatlarini o‘rganish g‘oyat muhimdir. Bu sohada «Avesto», Qur‘oni karim, muqaddas hadislarda oila va farzand tarbiysi haqidagi qarashlar keng yoritilgan. Shuningdek, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 55.

asarlarida oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlar birmuncha rivoj topdi, ular bu masalani, asosan, ota-onas hamda farzand munosabatlari doirasida talqin qildilar.

Nihoyat, ijtimoiy tafakkur rivojiga ko‘ra, XIX asrga kelib jahon jamiyatshunosligida oilaga qiziqish yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarida oila va oilaviy an'analar tarixiga nazar soluvchi er-xotin V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning «Farg‘ona vodiysida o‘troqlashgan mahalliy ayollar turmushi ocherki» (Qozon, 1888), Rizouddin ibn Faxruddinning «Tarbiyali bola», «Tarbiyali ona», «Ahli ayol», «Tarbiyali xotun», «Shogirdlik odobi», «Birinchi nasihat», «Ikkinchi nasihat», «Uchinchi nasihat», «Odobi ta‘lim» va «Oila» singari o‘n jilddan iborat «Ilmi axloq» (Orenburg, 1913), Faxr-ul Banot Sibhatulloh qizining «Oila saboqlari» (1913), Abdurauf Fitratning «Oila yoki oilani boshqarish tadbirlari» (1914), L.Ya. Shternbergning «Shimoli-sharqiy Osiyo xalqlarida oila va urug‘» (L.1933), M.O. Kosvenning «Oilaviy jamoa va patronimiya» (M., 1963), K.Shoniyozovning “Qarluq-o‘zbeklar” (Toshkent, 1964), A.T. Bekmurotovning «Qoraqalpoqlar turmushi va oilasining o‘tmishi va hoziri» (Nukus, 1969), G‘.V. Shoumarov va Sh.B. Shoumarovlarning «Muhabbat va oila» (Toshkent, 1994), «Oila ma'naviyati» (1997), Erkin Yusupovning «Oilaning ma'naviy asoslari» (Namangan, 1998) va Oynisa Musurmonovaning «Oila ma'naviyati - milliy g‘urur» (Toshkent, 2000), T.Qurbanovning «Ota bo‘lish osonmi» (T., «Ma'naviyat», 2007), M.Quronovning «Milliy tarbiya» (T., «Ma'naviyat», 2008) singari qator tadqiqotlari yuzaga keldi. Bu tadqiqot ishlarining har biri o‘ziga xos ma`no-mazmunga ega, biroq yaratilgan davri mafkurasidan oziqlanganliga bois ular mustaqillik mafkuri manfaatlariga mos kelmaydi. Shu nuqtai nazaridan o‘zbek xalqida oilaning vujudga kelish tarixi, oiladagi farzand tarbiyasi va mohiyatini xolisona yoritish dolzarb ilmiy masala bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma‘nan barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda jiddiy ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, Respublikamiz hukumati, shaxsan Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan 1998 yilning 2 fevralida «Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to‘g‘risida» maxsus qaror qabul qilindi. Unda «Oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni

avaylab-asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqr singdirish yo‘li bilan oilalarning mustahkamligini ta’minalash, oila a’zolarining huquqiy savodxonliklarini oshirish muammolarini ilmiy o‘rganishni va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishni muvofiqlashtirish tadbirlari belgilab berildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 3-fevralda imzolangan farmon<sup>1</sup> fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish masalalarini mutlaqo yangi bosqichga ko’tardi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Demokratik jamiyatni yaratishning muhim shartlaridan biri, avvalo, har jihatdan sog‘lom, ma’naviyati yuksak, mustaqil fikrlovchi yangi avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Chunki har bir ota-onan o‘z farzandlari timsolida ezgu orzu-umidlarining ro‘yobini, porloq kelajakni tasavvur qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganidek: «Bola tarbiyasida sog‘lom nasl masalasi ham muhim rol o‘ynashini inkor etib bo‘lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebahon ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi»<sup>2</sup>.

Oila va jamiyat, oila va mahalla munosabatlari bilan bog‘liq boy milliy an'analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlarini, ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ommalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda bitiruv malakaviy ishining maqsadini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-fevralda “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // <http://www//kun.uz//news/>

<sup>2</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 56

- milliy oilaviy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini yuksaltirish va uning oilada uyg‘unlashuvini ta’minlash;
- oilaning pedagogik, psixologik, ijtimoiy-psixologik muammolarini o‘rganish hamda rivojlanish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;
- oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, demografik xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish;
- oila, ona va bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqyeini aks ettiruvchi statistik axborotlarni to‘plash va umumlashtirish;
- oilani rejalashtirishni, uning salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etish, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyatga keng tatbiq etish;
- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni yaxshilash maqsadida nikoh uylari va salomatlik markazlari huzurida maxsus o‘quv-tarbiyaviy kurslarni tashkil etish;
- oilaning huquqiy savodxonligini tubdan yaxshilash va himoyalash bo‘yicha ilmiy-amaliy faoliyat ko‘rsatish;
- oilada bolaning qonuniy huquq va manfaatlarining himoya qilinishi, sog‘lom o‘sishi, mакtabga tayyorlanishida ota-onalarning faoliyatlarini takomillashtirish hamda mas’uliyatlarini oshirish yuzasidan o‘quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- yosh avlodda ma’naviyat, madaniyat, ma’rifatni yanada yuksaltirish orqali oilada barkamol avlodni tarbiyalashning eng samarali, maqbul usullarini izlash va ishlab chiqish;
- oila va jamiyat muammolariga va ularning yechimiga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanma, ilmiy-ommabop risolalar yaratish.

Shu o‘rinda bugungi globallashuv davrida sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalash borasida olib borilayotgan davlat siyosati hamda sog‘lom avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta‘lim muassalarining tutgan o‘rnini tahlil qilish asosida mavzuni yoritish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Sog`lom avlodni tarbiyalash masalasining dolzarbligi va unda ota-onalarining mas`uliyatini oshirish;
- Sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning tutgan o`rni;
- O`zbekiston Respublikasi davlat siyosatida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga berilayotgan e`tibor;

Bugungi globallashuv davrida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta`lim muassalarining tutgan o`rni masalalarini keng yoritish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti va predmeti.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob`yekti sog`lom avlodni tarbiyalashda oilaning jamiyatda tutgan o`rni va ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirokini yanada oshirish bilan belgilanadi. Shuningdek, sog`lom, barkamol avlod tarbiyasida oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini ta'minlash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish masalasiga e'tiborni qaratadi. Ayni vaqtda oila jamiyatning o`ziga xos ijtimoiy muassasasi bo`lib, u qancha mustahkam bo`lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam bo`ladi. O`zbek xalqining bolajonligi va bag`rikengligi, O`zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida oilada barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalashning samarali yo'llarini aniq dalillar asosida taxlil qilish bitiruv malakaviy ishining predmeti bo`lib hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari.** O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan sog`lom, barkamol avlod tarbiyasida oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini ta'minlash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish masalasiga e'tiboriga oid munosabatlarni yanada takomillashtirish masalalariga bag`ishlangan asarlarida bayon etilgan fikrlar, chiqrilgan normativ hujjatlar, qarorlar mazkur bitiruv malakaviy ishining nazariy – metodologik asosi bo`lib xizmat qildi.

Ko`zlangan maqsadga erishish, belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlash maqsadida milliylik va umuminsoniylikning birligi tamoyillari

hamda analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylikning birligi kabi usullarga tayanildi.

### **Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.**

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, bitiruv malakaviy ishining xulosa qismidagi tavsiyalardan amaliyotda, oilamaktab va mahalla hamkorligini kuchaytirish orqali keng foydalanish mumkin. Shu bilan birga oilada barkamol avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiyl o‘rta ta’lim, oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, nodavlat va notijorat tashkilot muassasalarida keng foydalanish mumkin.

### **Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.**

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Har bir bob ikkitadan paragraflarga bo‘lingan.

## **I-bob. Sog`lom avlodni tarbiyalashda oila muhiti va ota-onalarning mas`uliyati**

### **1.1. Sog`lom avlodni tarbiyalash masalasining dolzarbliji va unda ota-onalarning mas`uliyati.**

Huquqiy demokratik davlat barpo etilayotgan O‘zbekiston Respublikasida hozirgi davrda oilaning tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega. Oila – bu jamiyatning bir bo‘lagi, kichik bir vatan, insoniy muhabbat ifodasi, insonni dunyoga keltiradigan makon, ilk tarbiya o‘chog‘i, yurt boyligi va tayanchi, mehr-muhabbat ramzi hisoblanadi. Bu barcha fuqarolardan o‘z oilasini mustahkamlash, uning har bir a’zosini vatanparvar, jismonan sog`lom, ma’nan barkamol, davlat va jamiyat uchun sidqidildan xizmat etuvchi farzand qilib tarbiyalashni talab qiladi. Oila - jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keladigan ijtimoiy xodisa bo‘lib, u muayayn ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Oila – bu jamiyatning asosi va boshlang‘ich zarrachasidir. Oila farovonligi, bolalarni ma’naviy va jismoniy jihatdan sog`lom qilib tarbiyalash mamlakat boyligining va kuch - qudratining negizidir”<sup>1</sup>.

Mamlakatda o`tgan yillar mobaynida amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oilada sog`lom, barkamol avlod tarbiyasi, oila va uning mustahkamligi muammosini taxlil qilish, o‘rganish umuminsoniy vazifa ekanligi e’tirof etilmoqda. 1993 yil 20-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “1994 yildan boshlab har yili 15-mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to‘g‘risida maxsus qaror” qabul qilingan<sup>2</sup>. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda va jahon hamjamiyati tomonidan har yili 15-may “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda. 1993 yildan buyon Venada, Qohirada, Kopengagenda, Pekinda hamda qator boshqa Xalqaro anjumanlar kun tartibiga oila masalasining alohida kiritilishida ham ma’no bor<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> <http://www.gov.uz>.

<sup>2</sup> <http://www.undp.ru/news/>

<sup>3</sup> Отахўжаев Ф.М. Ўзбекистон республикасининг оила хукуки. Тошкент.: Шарқ, 2005. - Б. 3

Oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizda, mentalitetimizda mustahkam o`rin olgan. "Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit, sog'lom mafkurani shakllantirish o'ta muhim masaladir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va axillagini ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi"<sup>1</sup>.

Oila,- hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir<sup>2</sup>.

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalash maskani sifatida muhim ahamiyatga molikdir.

Inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o'taydi, ya'ni oilada odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatiga asos solinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1998 yilni «Oila yili»<sup>3</sup> deb e'lon qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar yuzasidan davlat dasturi tasdiqlandi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 1998-yil 2- fevraldag'i qarori

<sup>1</sup> Рисқиев Т. Миллий истиқлол гояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - Б. 66

<sup>2</sup> 1998 йил - Оила йили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 9-10

<sup>3</sup> Ҳалқ сўзи. 1997 йил 7 декабрь.

bilan Respublika «Oila» ilmiy- amaliy markazi<sup>1</sup> tashkil etildi, O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 6-martda «Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Xalqaro Konvensiyaga qo‘sildi. O‘zbekistonda oilaning jamiyatdagi tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish hamda oilaning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Oila – ayni vaqtda jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy muassasasi bo‘lib, u jamiyatning uzviy qismi sifatida qancha mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham, davlat ham shuncha mustahkam bo‘ladi.

O‘zbek oilasining o‘ziga xos bir qator xususiyatlari mayjud bo‘lib ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) O‘zbek oilasining uzoq tarixiy o‘zgarishlar natijasida shakllanib kelganligi;
- 2) O‘zbek oilasining aksariyat urf-oddatlari, marosim-an'analari islom qoidalariga va axloq normalariga asoslanganligi;
- 3) O‘zbek oilasi qadimiyligi, tarixiy boy an'analarga ega ekanligi hamda buyuk insonlarni yetishtirganligi;
- 4) O‘zbek oilasining ko‘p bolali bo‘lishga asoslanganligi;
- 5) O‘zbek oilasining mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi;
- 6) O‘zbek oilasining mehnatsevarligi;
- 7) O‘zbek oilasining zamonaviy ma’naviy madaniyatga ega bo‘lishi kabilar shular jumlasidandir.

Oila jamiyat tomonidan muhofaza etiladi-deganda respublikamizda faoliyat yuritayotgan turli davlat va nodavlat tashkilotlar, jamg‘armalar tomonidan oilaga moddiy- ma’naviy yordam berilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi tushuniladi.

Davlat tomonidan oilalarga kun sayin g‘amxo‘rlik qilish unga har tomonlama ijtimoiy yordam berish insonparvar demokratik davlatning muhim vazifalaridan biriga aylangan. Oilaning davlat muhofazasida ekanligi O‘zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidentining farmonlarida, davlat dasturlarida, qonunlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidentining

---

<sup>1</sup> <http://www.oila.uz/news/>

1990-yil 3-maydagi birinchi farmoni «Ko‘p bolali oilalarga nafaqa miqdorini ko‘paytirish to‘g‘risida» deb nomlangan. Shuningdek, 1994-yil 16-iyuldagagi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoniga ko‘ra bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ko‘p bolali onalarga davlat yo‘li bilan yordam berilishini kuchaytirish, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash muammolarini hal etishda ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash va bolalarni har tomonlama kamol toptirish maqsadida 1994 yil 1-sentabridan boshlab ko‘p bolali onalarga davlat ijtimoiy yordamining amaldagi tizimi o‘rniga nafaqa turlaridan iborat yagona tizim joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan 1994-yilning 1-oktyabridan aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi turi, kam ta‘minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam joriy etildi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan oila institutini mustahkamlash uchun qilinishi lozim bo‘lgan barcha amaliy ishlar va dolzarb vazifalar o‘tgan yillar davomida amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 1998 yilni «Oila yili» deb e’lon qilishi mamlakatdagi har bir oila muammolariga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa, 1999 yil – «Ayollar yili», 2000 yil – «Sog‘lom avlod yili», 2001 yil – «Onalar va bolalar yili», 2002 yil – «Qariyalarni qadrlash yili», 2003 yil – «Obod mahalla yili», 2004 yil – «Mehr-muruvvat yili», 2005 yil – «Sixat-salomatlik yili», 2006 yil – «Homiylar va shifokorlar yili», 2007 yil – «Ijtimoiy himoya yili», 2008 yil – «Yoshlar yili», 2010 yil – «Barkamol avlod yili», 2012 yil – «Mustahkam oila yili», 2013 yil – «Obod turmush yili», 2014 yil – «Sog‘lom bola yili», 2015 yil – «Keksalarni e’zozlash yili», 2016 yil – «Sog‘lom ona va bola yili», 2017 yilni – «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e’lon qilinishi va boshqa qator normativ hujjatlarning barchasida sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi.

Davlat dasturlarida oila va oilaviy munosabatlar jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan tashqari, uning demografik jarayonlarini yaxshilashda ham katta rol o‘ynab, sog‘lom barkamol avlodni tarbiyalash masalalarini hal qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining

“Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlashga doir, qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi ham oilaga berilayotgan e’tiborning muhim bir ko‘rinishidir<sup>1</sup>.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘layotgan o‘zgarishlar oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan munosabatga ham sezilarli darajada ta’sir qilmoqda. Ayniqsa, mustaqillik sharoitida oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi va farzandlarimiz tarbiyasi nihoyatda dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqdi. Chunki jamiyat aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, ruhan boy sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashdan manfaatdordir. Bunday barkamol avlod eng avvalo ma’naviy-axloqiy jihatdan sog‘lom va mustahkam oilada shakllanadi.

Chunki oilani rivojlantirish va mustahkamlash uchun qilinadigan g‘amxo‘rlik kelajak avlod taqdiri bilan bog‘liqdir.

Oila doimo rivojlanib boruvchi, takomillashuvchi, ya’ni mazmun mohiyati bilan boyib boruvchi maskan bo‘lib, dunyoda birorta inson o‘zini oilasiz tasavvur eta olmaydi. Oilaning tinchligi, mustahkamligi mamlakatning tinch va xotirjamligi bilan uyg‘un sanalgan. Oiladagi noxushlik, ko‘ngilsizlik kayfiyati millat va davlatning fojeasi hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda oila milliy qadriyat, milliy urf-odatlarni, axloqiy tarbiyani avloddan-avlodga yetkazib beruvchi milliy qo‘rg‘on bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda oilaga e’tibor millat kelajagiga e’tibor ekanligi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning quyidagi fikrlarini bayon qilish maqsadga muvofiq keladi “Biz farzandlarimiz tarbiyasini boshqalarga berib qo‘ymaymiz”<sup>2</sup>. Darhaqiqat, oilada eng muhim dolzarb vazifalaridan biri farzand tarbiyasidir. Chunki bugun ota-onalar va keng jamoatchilik farzand tarbiyasiga e’tibor bermasa ertaga kech bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ishga solib, ota-onalarning, mahalla va ta‘lim muassasalarining mas‘uliyatini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega. Bolaning tabiiy alomatlari va nasli-nasabi qanchalik

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёш оилаларни моддий ва маънавий қўллаб қувватлашга доир, қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-3878 сонли Фармони. 2007 йил 18 май.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuqlarimiz asosi. // Ma’rifat, 2016 yil 11 may.

ahamiyatga ega bo‘lmasin, bu o‘rinda bari-bir tarbiya hal qiluvchi rolni o‘ynaydi. Chaqaloqning dunyoga kelgan dastlabki kunlarida ota-onaning bolaga nisbatan mehr-muhabbatining tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Ota-onalarning o‘z farzandi tarbiyasi oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri anglab yetishilari lozim. Ota-onaning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati bolaga ko‘rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillaridan biriga aylanishi kerak. Ma'lumki, ota-onalarning o‘zaro muhabbatidan, ulardan ko‘ra farzandlari ko‘proq bahramand bo‘lar ekanlar.

Ota-onaning o‘zaro munosabati qanday bo‘lishiga bola aslo befarq qaray olmaydi u qanchalik yosh bo‘lmasin, baribir hamma narsani juda yaxshi ko‘rib, uning murg‘ak qalbi ota-onalarining muomalalarini sezib turadi.

Ota-onalar o‘z farzandlariga nimalar baxsh etish kerakligini, ularning har birini juda yaxshi biladilar. Lekin ko‘pchiligi farzandlari oldida qanday burchlari borligini har doim ham aniq tasavvur qilavermaydi. Birinchi farzand ko‘rish ishtiyoqida yurgan ota “farzand ko‘rsam chekishni tashlayman, chunki chaqaloqni oldida chekish mumkin emas”-degan orzu-hayol qilgan bo‘lsa, bu zararli odatni tark etishi mumkin.

Ota-onalarning o‘z farzandlarini haddan tashqari yaxshi ko‘rishlari xudbinlikka olib keladi. Bu illat esa odamlarni bir-biridan ajratadigan, ular o‘rtasidagi nizolarni keltirib chiqaradigan xususiyatlarni vujudga keltirishga zamin hozirlaydi. Ota-onaning o‘ziga talabchan bo‘lishi, ota-onaning o‘z oilasini hurmat qilishi, ota-onalarning har bir qadaminin nazorat ostiga olishi lozim, bu tarbiyaning birinchi va eng asosiy omilidir.

Oilada bolalarni tarbiya qilish ishi eng jiddiy, eng oddiy va samimiy muomala talab qiladi. Hayotingizning eng haq yo‘li ana shu uch xususiyatdan iborat bo‘lmog‘i kerak.

Gapingizga salgina bo‘lsa ham yolg‘on, sun‘iylik, mazax, yengiltaklik aralashsa tarbiyaviy ishning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi turgan gap. Sizning samimiy bo‘lishingiz, sizning kayfiyatingiz, oilangizda ro‘y berayotgan voqeanning vaqt va mohiyatiga muvofiq bo‘lsin.

Tarbiyaviy ishining chinakam mohiyati aslo ota-onaning bolaga gap uqtirishida, balki ularning bolaga bevosita ta'sir qilishlarida bo'lmay, oilanning o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotini qanday tashkil etilganligi va bola hayotining qanday tashkil etilganidadir. Tarbiyaviy ish avvalo tashkilotchilik ishi bo`lib, bu ishda hech nimani mayda deyishga va uni unitishga ota-onaning xaqqi yo'q.

Oilada ota-onalar farzandlarini to‘g‘ri tarbiyalashda quyidagilarga alohida e'tibor berishlari zarur:

- Bolani keyinchalik qayta tarbiyalash ishi bilan shug‘ullanmaslik uchun to‘g‘ri tarbiyalashga harakat qilish kerak.
- Bola oilada faqat sizning quvonchingizgina bo‘lib qolmasligini, bo‘lajak fuqaro ekanligini, uning uchun jamiyat oldida javobgar ekanligingizni doimo esda tutishingiz lozim.
- Eng avvalo o‘zingiz yaxshi inson bo‘lishingiz va o‘z yaxshi hislaringizni oilaga singdirishingiz lozim.
- O‘z xulq-atvoringiz to‘g‘risida o‘zingiz o‘zingizdan qattiq talabchan bo‘lishingiz lozim.
  - Tarbiyaviy ishda eng asosiy narsa oila hayotini tashkil etish va oilaga oid barsha narsani hisobga olib faoliyat yuritishi tashkil etish lozim.

Albatta bu sanab o‘tgan omillarga to‘la amal qilish mavjud muammolarni qisman bo‘lsada hal qilishga ko‘maklashadi. O‘zbek oilasini mustahkamlash, erxotin, farzandlar munosabatlarini takomillashtirish, oilada kuchli ma'naviy-axloqiy, ruhiy, mafkuraviy muhitni shakllantirish, tarbiya muammolarini hal etish har bir insonning fuqarolik burchi va mas'uliyatiga bog‘liq.

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun intilishi, g‘ayrat ko‘rsatishi, yaxshilik ko‘rishi uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning shakllanishida, hayotda o‘z o‘rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo‘lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini o‘zida mujassam etishida oila va undagi ota-onaning mas’uliyati asosiy o‘rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini taminlovchi shaxs shakllanadi. Jumladan, milliy

madaniyat, urf-odatlar, milliy, axloqiy qadriyatlar saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy-manaviy hayot poydevori qo‘yiladi va mustahkamlanadi.

O‘zbek xalqi tabiatan bolajon xalq bo‘lib kelgan va bolaga nisbatan bag‘rikenglik, mehridaryolik, o‘ta fidoyilik xalqimizga xos xususiyatlardir. Shu boisdan ota-onalar farzandlarning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo‘yicha kasbhunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalash mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovi. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ushbu jarayon turmush quradigan yigit va qizning bir-biriga har tomonlama munosibligidan boshlanadi. Bo‘lajak ota-onaning sog‘-salomatligi, nasl-nasabi, dunyoqarashi, axloq-odobi, moddiy va manaviy darajasining mosligi, turmush qurishga har tomonlama tayyorligi farzand ko‘rish va uning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Oila axilligi, barkamol farzandlar jamiyat mustahkamligi va manaviy yetukligining garovidir. Oilada farzand tarbiyasi u tug‘ilmasdan boshlanmog‘i zarur. Homilador ayolning kayfiyati yaxshi, asablari sokin, istemol qiladigan taomlari bola organizmi uchun foydali bo‘lmog‘i zarur. O‘z vaqtida yumushlarini bajarib, dam olib, sayr qilib, ovqatlanib, tug‘ilajak bola taqdirini o‘ylash uning vazifasi hisoblanadi. Er-xotin, oilaning boshqa a’zolari o‘rtasidagi sog‘lom manaviy muhit, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog‘lom tug‘ilishiga garov bo‘ladi.

Ba’zan oilada uchraydigan er-xotin, qaynona-kelin va boshqalar o‘rtasidagi bir-biriga nisbatan hurmatsizlik, o‘zaro nizo, urush-janjallar, homilador ayolni avaylab-asrash o‘rniga og‘ir mehnatga majburlash, xo‘rlash, hatto unga qo‘l ko‘tarish bolaning kasalmand, nogiron, jizzaki bo‘lib tug‘ilishiga olib keladi. Ota-onadagi eng yaxshi xususiyatlar ham yomon xususiyatlarga qo‘shilib irsiy yo‘l bilan bolaga o‘tishi tabiiydir. Hatto tug‘ilmagan bolada ona qornidayoq ota-onaga nisbatan mehr hissi shakllana boshlaydi. Ba’zan ernen bola dunyoga kelmasdan

«Agar farzandimiz qiz bo'lsa, to'g'ri otangning uyiga ketasan» yoki «Tug'uruqxonaga yo'qlab borishimni kutmagin» kabi harxashalar bilan janjal ko'tarishi, albatta, bo'lajak ona uchun ham, bola uchun ham zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun donishmandlarning bolani u tug'ilmasdan oldin tarbiyalash xususidagi o'gitlariga amal qilmoq zarur. Bir kishi yangi tug'ilgan chaqaloqni donishmand kishi oldiga olib kelib: «Taqsir, bolamga qachondan tarbiya bera boshlay?»-debbi. Shunda donishmand «Bolang dunyoga kelganiga necha kun bo'ldi?»-deb so'radi. «Ikki oy, taqsir»- debdi ota. «Attang, siz ancha kech qolibsiz, tarbiyani onasining qornidaligidan boshlappingiz kerak edi»,— debdi donishmand<sup>1</sup>.

O'zbek oilalarida farzand dunyoga kelishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos marosimlar va rasm-rusmlar mavjud bo'lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism qo'yish, kichik va katta chilla saqlash, beshikka belash, soch, tirnoq olish, birinchi qadam, ilk bor gapira boshlash, tish chiqishi, yoshiga to'lishi, o'g'il bolalarni xatna qilish, birinchi muchal, mo'ylabi sabza urishi munosabati bilan bog'liq oilaviy tantanalarning o'tkazilishida ramziy ma'no bor. Shunday marosim, rasm-rusmlar bola quvonchiga quvonch qo'shami, uning manaviy kamolotiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Oilada chaqaloqning sog'lom o'sishi uchun muhim bo'lgan davri chilla davridir. Bu muddat kichik (20 kun) va katta (40 kun) chilla davrlariga bo'linadi. Bu davr yosh ona va bolani har tormonlama asrashni taqozo etadi. Chilla davri uchun harakterli xususiyatlar: ona va bolani yolg'iz qoldirmaslik, ular yashayotgan xonaga hech kimni kiritmaslik (gigienik tomondan ham mumkin emas), chaqaloqni tuzli, tuproqli suvda tez-tez cho'miltirish (badandagi ortiqcha tuklar to'kiladi), onaga yumush qildirmaslik, quvvat beradigan, sut ko'paytiradigan taomlarni istemol qildirish, tunda tashqariga olib chiqmaslik va bezovta qilmaslik (ona va bola ma'lum bir sharpadan seskanishi, qo'rqishi mumkin, natijada sut kamayishi yoki xastalanishi mumkin), bolani qorong'ulikda saqlamaslik, ona-bola asabini buzmaslik, qo'rkitmaslik, ularning salomatligini taminlash muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> Донолар бисотидан. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 66.

Sharqda qadimdan emizikli ayol taomnomasiga alohida ahamiyat berib kelingan. Farzandli bo`lgan ona sut keltiruvchi kuchli taomlar bilan ovqatlanishi, sutni buzmaslik uchun piyoz, sarimsoq, garmdori, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar istemol qilmasligi zarur. Bular bola tanasi uchun zararlidir.

Ayniqsa ona yosh farzandini tarbiyalashda allaga e`tibor berishi lozim. Alla o`zbek xalqining qadimiylari, muhim tarbiyaviy harakterga ega qo`sish turlaridan hisoblanadi. Ona allasidan bahra olib katta bo`lgan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi kuchli bo`lishi yoshligidan singdiriladi. Alla aytmagan ona yoki alla eshitib katta bo`limgan farzand O`zbekistonda bo`lmasa kerak.

Kichik bir mehr, e`tibor sabab, kishilar o`rtasida rahmdillik, axillik, birdamlik qaror topib, mehr degan oliv tuyg`u tufayli bardavom bo`lgan. Oilaviy ajrimlar ham mehr-oqibat namunasi bilan barham topgan. Biroq, bugun dunyoning turli mintaqalarida oila va oilaviy munosabatlarga bepisandlik bilan qaralmoqda, buning oqibatida, “2001-2016-yillar davomida dunyo bo`yicha ajrimlar ko`rsatkichi Shimoliy Amerikada 50,5%, Janubiy Amerikada 12%, Evropada 57,4%, MDH davlatlarida 32%, Osiyo mamlakatlarida 21%, Avstraliya davlatida 43% ni tashkil etgan bo`lsa, bu ko`rsatkich O`zbekistonda 8% tashkil etgan”<sup>1</sup>. Mazkur tahlillar mamlakatimizda oila institutining xizmati va bu sohada olib borilayotgan islohatlarning qay darajada muhim ekanligini ko`rsatadi.

Bugun insoniyat, oila institutiga bo`lgan munosabatning keskin o`zgarayotganligiga guvoh bo`lib turibdi. Ayrim g`arb mamlakatlarida oilaviy inqirozlar vujudga kelgan, ayrim odamlar oiladan yiroqlashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Ota g`amxo`rliги, ona mehridan mosuvo bo`lib, insonlar taqdiri oxir-oqibat tanazzulga ketayotganligini to`g`ri fikrlayotgan zamon kishilari ham yaxshi anglab turibdilar. Davr shiddati tez, taraqqiyot odimlariga hamohang ravishda oilaning azaliy mohiyati ham o`zgarib bormoqda. Biroq, ulkan burilishlarga qaramay, xalqimizning oilaga nisbatan beradigan bahosi hamon yuksak bo`lib

<sup>1</sup><http://www.tiu.uz/en/structure/bulletin/207-maqolalar/talabalar-ijodidan/362-oila-institutining-jamiyat-barqarorligidagi-o-rni.html>

kelmoqda. Elimiz hamisha oilaviy qadriyatlar bilan qaddini rostlagan. Oilada tarbiya topgan avlodlarning kamoloti bilan qadr-qimmat topgan.

Darhaqiqat, jismonan sog`lom, ma`naviy yetuk va har tamonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va jamoatchilikni keng jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim vazifa sanaladi. Binobarin, “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining ta`lim muassasalari bilan o`zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-son qarori qabul qilingani bejiz emas.

Shuningdek, oila – har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta`minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma`naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir.

Chindan ham, oila – tabiatning eng go`zal mo`jizalaridan biri bo`lib, u insonlarga xos tabiiy, biologik munosabatlar va iqtisodiy munosabatlar, uyro`zg`orni boshqarish ma`naviy munosabatlarga, er-xotin, ota-onalardan bolalar o`rtasidagi mehr-oqibat tuyg`usi munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Chunki oilaning o`ziga xos xususiyatlari, oila a`zolarining bir-biriga nisbatan burch va vazifalari shularga og`ishmay amal qilinsagina, oila mustahkam va barqaror bo`ladi.

Jamiyatning barqarorligi, ravnaqi, ma`naviy, ma'rifiy barkamollik darajasi, yoshlar kamoloti va dunyoqarashining yo`nalishlari bevosita oila, mahalla va ta`lim muassasalaridagi moddiy-ma`naviy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitning barqarorligiga, ma`nan sog`lomlik darajasiga bog`liqdir. Bugungi kunda oila va uning rivojlanishi, oilada farzand tarbiyasini masalalari jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan ijtimoiy vazifalardan biridir.

Oila jamiyatning muhim bir bo`lagi va asosiy negizi bo`lib, kishilar birligining boshlang`ich shakli sifatida yakka va jamoaviy asoslarni o`zida mujassamlantiradi. Oiladagi farzand tarbiyasida eng avvalo, ota-onalarning o`zlari namuna bo`lishlari kerak. Farzandlar bilan olib boriladigan kundalik odatiy

suhbatlarida ularning o‘qishlari, qiziqishlari va ma’naviy kamolotiga alohida e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom va har tomonlama barkamol yoshlarni shakllantirish ijtimoiy, tarixiy xususiyatlarga yondoshgan holda o‘tmish avlodlardan meros bo‘lib kelayotgan oila ma’naviyati, oila va jamiyat munosabatlari, oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, oila ma’naviyati va mustahkamligida ota-onaning o‘rni, oilada farzand tarbiyasi kabi masalalarga alohida e’tibor berish lozim.

Demak, oilalarimizda sog‘lom ma’naviy muhitni yaxshilash, xususan, erxotin, ota-onsa va farzandlar, qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlar, qo’shnichilik munosabatlarining o‘zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida bo‘lishiga erishish – bu yurtimizdagи tinchlik-osoyishtalik va axillikni yanada mustahkamlashning eng muhim sharti ekanini doimo esda tutishimiz lozim.

Xulosa qilinadigan bo‘linsa, oila axil va tinch-totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi va bu o‘rinda ota-onalarning mas‘uliyati muhim o‘rinda turadi. Ota-onalarning mas‘uliyati bolada shakllanishi lozim bo‘lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi.

## **1.2. Sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o`rni.**

Bugun jismonan sog`lom va ma`naviy yetuk avlodni tarbiyalash, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlар asosida yuksak ma`naviyatli yoshlarni shakllantirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar, asosiy ustuvor yo`nalishlardandir. Shunga asosan, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda oila instituti zimmasiga katta mas`uliyat yuklanmoqda.

Barcha davrlarda ota-onalarning katta hayotiy tajribasi, bir-biriga hurmat, sadoqati, muhabbati, hamfikrliliga, iymonliligi, insofiligi, mehnatsevarligi, oilaparvarligi farzandlar uchun kamolot maktabi bo`lib kelgan. Bu mакtabda bir umr unutilmaydigan, e'tiqodiga chuqur singadigan saboq olgan.

Farzand ota-onas ibrati mohiyatini ruhan, vijdonan aql-idrok bilan anglaydi. Hayotda og`ir-yengilliklarni ko`p ko`rgan halol mehnat qilib kun ko`rishga odatlangan ota-onas farzandlariga yaxshi tarbiya berish imkoniyatiga ko`proq ega bo`ladi. Shu sababli Rasuli Akram halol mehnat qilib bola-chaqa boqish ularga axloq-odobdan saboq berishning savobi nafl namoz savobi bilan tengdur, deb aytgan edi.

Bir dono otaning uylanayotgan o`g`liga qilgan quyidagi nasixatlari diqqatga sazovordir. U shunday degan ekan: “Xotin kishi shirin so`z shaydosi, unga doimo shirin muomalada bo`l, lekin nazokati va iffatni talab qil. Nuqsoni bo`lsa yotig`i bilan tushuntir, uni hech malomat va xaqorat qilma, aks xolda chuvalchangdek beozor xotin ajdarga aylanadi. Muloyimlik va shirin so`z bilan xotin kishini abadiy do`stga aylantirish mumkin. Dunyoda xotindan sadoqatli do`stni topib bo`lmaydi”.

Yuqoridagi so`zlarda oilaviy munosabatlarga oid milliy axloq mezonlari, qadriyatlар tizimi ko`zga tashlanadi. “Doimo kulib turadigan erving xotini dunyodagi eng baxtli ayoldir”, degan xikmatli so`z ham yuqoridagi fikrimiz isbotidir.

O`g`il bola o`z umr yo`ldoshini hurmat qilishi otasidan, qiz bola o`z eriga qanday munosabatda bo`lishni asosan onasidan o`rganadi. Hadislarda yozilishicha: “Iymon jixatdan mo`minlarning komilrog`i xulqi yaxshi bo`lgani, xotinlarga xosli

muomala qilganidir”, “Tangri ayollar bilan yaxshi muomalada bo‘lishingizni tavsiya etadi, chunki ular onalaringiz, qizlaringiz, xolalariningizdir”. Oilada axloqiy qadriyatlarning xossalari xuddi shu fikrlardan izlamoq kerak.

Oilada er va xotinning o‘zaro munosabatiga, farzand tarbiyalashdagi mas’uliyatiga jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar ham ta’sir etadi. Faqat adolatli jamiyatdagina er va xotin o‘rtasidagi munosabat tenglik va tenghuquqlilikka tayanish mumkin.

Ota-onaya hayotda bilib-bilmay farzandlarini ranjitadilar. Adolatsizlikka yo‘l qo‘yadilar. Farzandlarini noo‘rin ranjитish, ularni tirik yetim qilishdir. Farzand aqlxushli bo‘lib qolgan davrda halol xotini ustiga xotin olgan maishatparastlik yo‘liga o‘tgan ota yoki bolalarini tashlab ketgan ona, bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday paytda farzand ruhan eziladi, yoru-do‘stlari, mahalladagi odamlarning yuziga tik qarashga botina olmaydi. Bunday sabablar bilan bog‘langan armon ular qalbida chuqr iz qoldiradi.

Ayrim ota-onalar farzandlarini halol mehnat qilib pul topishga o‘rgatmay, jinoyat ishga boshlaydilar. Ba’zan ayrim onalar o‘z farzandlariga nisbatan shunday bemexr bo‘ladilarki, ularda insoniy qalb, vijdon bormikin, deb qolasan kishi. Ayrim hollarda yosh bolalarini ota-onasiga tashlab, maishat, mol dunyo izlab boshqa joylarga ketib qolayotgan, yosh go‘daklarni ona mehridan judo qilayotgan ayollar ham kam emas. Bundaylarni insoniy qiyofasini yo‘qotgan, xayvonlardan ham tubanlashib ketgan kishilar deyish mumkin.

Ota-onaya farzandini xaddan tashqari erkalatib, aytganini qilaversa ham bir kuni borib pushaymon bo‘lib qolishi mumkin. Farzandi qilgan yomon qiliqlardan, xatto jinoyatlaridan ota-onalari bir umr afsuslanib, mahalla oldida xijolat chekib, ruhiy iztirobga qolishi mumkin.

Bunday ota-onalar farzandlari qilgan nojo‘ya ishlarga o‘zlari aybdor ekanini keyinroq tushunadilar, pushaymon bo‘lib yuradilar. Xalqimiz “So‘nggi pushaymon, o‘zingga dushman” deb bekorga aytmagan. Sababsiz ko‘p xotin olish bu oilaviy hayotni tushunmaslikdir. Erkakning baxti ko‘p xotin olishda emas, balki bir sog‘lom, sadoqatli, halol ayol bilan turmush qurib, farzand ko‘rish, shirin,

baxtli hayot kechirishdir. Imom al Buxoriy aytganlaridek, “Kimki o‘z oilasi ichida tinch, tani sog‘ yashasa va oilada shu kuniga yetadigan taomi bo‘lsa, u odamga butun dunyo berilgan bo‘ladi”<sup>1</sup>.

Tarixga nazar tashlasak ota-bobolarimiz bo‘lgan turkiy xalqlar oilasida ayol kishning qard-qimmati nixoyatda yuksak bo‘lgan. XVI asrda Turkistonga kelgan adab sayoxi Ibn Batuta Xorazmshoxlarning xotinlari katta huquqlarga ega ekanligini, elchilar, sayyoxlar bilan bemalol suhbatlashishi, davlatni boshqarish yuzasidan maslahatlar berib turishini yozadi.

Qadimgi ota-bobolarimizda ko‘p xotin olish odati bo‘lmagan. Ziyo Ro‘kashning yozishicha “Eski turklarda zavja bitta bo‘ladi! U yana shunday yozadi: “Xoqon qabul qilgan har bir farmon”, “Xaqon va xotin amridirki”, deb boshlanardi. Elchilar o‘ng tomonda xoqon, so‘l tomonda xotin o‘tirgandagina ular oldiga kira olgan. Qabullarida, kengashlarda, qurultoylarda, ibodatlarda, marakalarda, urush va sulx majlislarida xotin xoqon bilan barobar bo‘ladi. Xoqonning xukmronlikdagi sherigi bo‘lmish xotinga “Turkan” unvoni berilardi<sup>2</sup>.

Xotinlar o‘q otish, ot chopish va turli qaxramonliklar ko‘rsatishda erkaklardan qolishmas edilar. Xotinlar qal'a xokimi, valiy, elchi bo‘lishgan. Erkaklar xotiniga hurmati balandligidan biror yerga bormoqchi bo‘lsalar xotinlarini aravaga o‘tqazib, o‘zlari arava ortidan piyoda borganlar. Ayollarning vafodorligi, sharm-hayoligi ma’naviyatimiz va ruhiyatimizga singib ketgan qadriyatlarimizdir. Buyuk bobokolonimiz ham oilani muqaddas deb hisoblaganlar. Amir temur xonardonida ham ayollar e'zozlangan, ayollarga cheksiz hurmat va ishonch bilan qaralgan. Uning oqila, donishmand, vafodor, sadoqatli umr yo‘ldoshi Bibixonimga hurmati ayniqsa katta bo‘lgan. “Saroymulkxonim” darajasiga ega bo‘lgan. U o‘ttiz uch yil soxibqironning safdoshi, g‘amxo‘ri, suyangan tog‘i bo‘lgan. Temuriyzodalar ham o‘z xotinlariga atab bog‘lar, madrasalar, masjidlar, xashamatli maqbaralar barpo etishgan. Bobur avlodidan bo‘lgan Shoxjaxon Jamna

<sup>1</sup> Имом ал Бухорий, Ал-Адаб ал- Муфрид. – Тошкент: Маънавият, 1990. – В. 97.

<sup>2</sup> Зиё Гўкаш Турқчилик асослари. – Тошкент: Маънавият. – В. 109.

daryosi bo‘yida o‘z umr yo‘ldoshi Arjumand Boun begimga atab Toj Mahal maqbarasini qurdirgan.

Bolalar oilada ota-onasi o‘rtasidagi munosabatni ham mustahkamlaydi. Farzand bo‘lmasa har qanday kuchli muhabbatga darz ketishi mumkin.

Yurtboshimiz O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ming yillar davomida yaratilgan, xalqimiz qoni va joniga aylangan ma’naviy durdonalarga yangicha qarash boshlandi.

Ilgarilari milliy an'analar va udumlarga ham xadiksirab qaraldi, uning tarbiyaviy xazinalaridan ham qandaydir “illat” qidirildi. Hayotbaxsh xalq an'analari kamsitildi. Ba'zi urf-odat va udumlarga diniy tus berilib, hayot saxnasidan tamom supurib tashlanmoqchi bo‘lindi.

Arab alifbosida yozilgan kitoblar hammasi diniy deb yo‘qotildi. Xullas, qalb extiyoji sanalgan urf-odatlar va an'analar ham, ma’naviy xazina durdonalari ham, hur fikrli xalq farzandlari ham yo‘qotildi.

Bugungi kunda unitib yuborilgan asriy ma’naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz tiklanmoqda. Xalq an'analari madaniyatimizning bir qismi sifatida jamiyat ravnaqi uchun xizmati ulkandir.

“An'ana” asli arabcha so‘z bo‘lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, ota-onalardan bolalarga o‘tib davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. An'ana ijtimoiy va ma’naviy merosdir. Ular iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovor, oilaviy an'analar sifatida jamiyatda ijtimoiy guruhlar orasida keng tarqalgan.

O‘zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'limgarbiya, madaniyat an'analari tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Kaykovusning “Qobusnoma” sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu nasr al Farobi, Beruniy, Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Xojib, A.Navoiy, A.Avloniy asarlarida sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ibratli tomonlari ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo‘lgan ota-onani hurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, mexmondo‘stlik, ma'rifatga chanqoqlik, ayolni ulug‘lash, farzandga mehrli va fidoiy bo‘lishlik kabi fazilatlar ochib berilgan.

Hayotda mazmunga ko‘ra ilg‘or umuminsoniy shaklga ko‘ra milliy an'analar qaror topmoqda. Eski va yangi an'analar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar jarayonida saralanadi, sayqal topadi.

Oilaviy an'analarga esa bolalarning tug‘ilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar, urf-odatlar, bola tarbiyasiga taalluqli bo‘lgan va umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan maslahatlar, qoidalar va vositalar kiradi. Oilaviy an'analarda shu xalqning tarixi, uning turmush sharoiti va hayot tarzi bilan bog‘liq o‘tmishi va kelajagi aks etadi.

O‘zbek xalqining asrlar mobaynida to‘plangan xalq og‘zaki ijodi xazinasi g‘oyat boydir. U xalqning ma’naviy madaniyatining oltin xazinasi hisoblanadi. Keksa avlod hayot tajribalari asosida to‘plangan, shakllangan dono fikrlarini quyi avlodlarga og‘zaki hikoya, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq va matallar shaklida singdirilgan. Xalq ertaklari, topishmoq va matallar orqali ota-onalarning, kattalarning maslaxatiga qulq solishga o‘rgatgan.

Xalq xotirasida saqlanayotgan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan eng yaxshi ertak va dostonlar, maqol va matallar, ashula va topishmoqlar bolalarni tarbiyalaydi, yaxshilikka, mehnat qilishga, xaqgo‘ylikka undaydi.

Xalq og‘zaki ijodida bolalarni bosiqlikka, sofdilikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardagi gerdayish, ichi qoralik, chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan. “Manmanlik qilma, netarsan, obro‘yingdan ketarsan”, “Sen o‘zingni maqtama, seni birovlar maqtasin”, “Egilgan boshni qilich kesmas”, “Mevali daraxatning mevasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning boshi shunchalik pastga egiladi”, “Baxilning bog‘i ko‘karmas”, “Birovga go‘r qazisang, o‘zing yiqilasan”, “Egri o‘ltirib, to‘g‘ri so‘zla”, “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” singari xalq maqollarida pand-nasixat ifoda etilgan<sup>1</sup>.

Ko‘plab maqol va matallarda bilimli bo‘lish ulug‘lanadi, bilimsizlik qoralanadi. “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar”, “Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq”, “Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar”, “Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar”, “Olim bo‘lsang, olam seniki” va xokazo.

---

<sup>1</sup> O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – B. 152

Vatanparvarlik, vatanni sevish mavzusi ham maqol va matallarda aks etgan. Masalan, “Boshqa yurtda shox bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l”, “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas”, “Elga qo‘shilganning ko‘ngli to‘q, eldan ajralganning beti yo‘q”<sup>1</sup>.

Xalq tajribasida tarbiya usuli ham o‘zbeklarda asosiy o‘rinni egallab kelgan. Yoshga munosib o‘zbekona ta’sir ko‘rsatish yo‘l va vositalari yaratilgan. Kerak bo‘lganda rag‘batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo‘lsa jazolangan. “Bir bolaga yetti mahalla ota-onan” deb bejiz aytilmagan. Xatolikka yo‘l qo‘ygan bola kimligidan qat’iy nazar jazolangan. Masalan, xalqimizning axloq-odob qoidalariga ko‘ra non e’zozlangan. yerga tushib ketsa olib ko‘zga surtib, iste’mol qilish yoki yo‘l chetiga olib qo‘yish tavsiya etilgan.

Suvga tuflash “gunoh” bo‘ladi “yomon bo‘ladi” deb tushuntirilgan. Qozonga mushuk yoki it, sutga sichqon tegsa o‘sha idishlar xarom xisoblanib, toza suvda yaxshilab yuvilgan. Kechqurun qozon yuviqsiz qolsa, xarom bo‘lgan, kechasi uy supurilmagan, supurgi yotqizib qo‘yilgan. Barmoqlarini zanjir qilish, oyoqlarini chalishtirib o‘tirish, ko‘pchilik oldida oyoqlarini uzatib o‘tirish odobsizlik hisoblangan.

“Yomon bo‘ladi” iborasi orqali kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik tarbiyalangan, yetim bolalarga ozor bermaslik, otaga tik qarash, qo‘pol muomala qilish, qizlarga behayolik qilish “yomon bo‘lishini” yoshlikdan tushuntirilgan.

Musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlashi, erta saxarda eshik ochilmasa “yomon bo‘ladi” deb uqtirilgan.

Hayvonlarga, qushlarga tosh otma, ozor berma, mevani tishlab tashlama, qush uyasini buzma, ekinlarni payhon qilma, “yomon bo‘ladi” iborasi orqali tabiatga hurmat tarbiyasi berilgan.

Oilada tejamkorlikka e’tibor berilgan, isrofgarchilik gunoh xisoblangan. “Toma-toma ko‘l bo‘lur, tommay qolsa cho‘l bo‘lur” – degan xalq maqoli bejiz aytilmagan.

---

<sup>1</sup> O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – B. 152

“Bola aziz, odobi undan aziz”. Bu maqolda o‘zbek xalqining tarbiyaga oid qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Xalqimizning tarbiya uslublarida bolalardan kattalarga birinchi bo‘lib salom berish, xushmuomalalik kabi xislatlarni taribyalashga asosiy e’tibor berilgan.

Ta’lim-tarbiyaning o‘git, nasixat, namuna bo‘lish, mehnatda chiniqtirish shakllaridan unumli foydalanilgan.

Yoz kunlaridan birida bog‘da ko‘maklashayotgan bola otasidan so‘rabdi:

- Nima uchun mana bu daraxt qiyshiq, mana bunisi esa to‘g‘ri?

- O‘g‘lim, - deb javob beribdi ota, - bu daraxtning qiyshiq o‘sgan joylarini qirqib, parvarish qilib turilgan, ikkinchi daraxt esa o‘z xolicha o‘sgan, shuning uchun qiyshiq.

- Unday bo‘lsa, daraxtlarni doim parvarish qilish kerak ekan-da, xulosa chiqaribdi o‘g‘li.

- To‘ppa-to‘g‘ri, - deb javob beribdi ota, - o‘g‘lim daraxtlarni parvarish qilish ko‘p foyda keltiradi. Sen ham xuddi shu niholga o‘xshaysan. Sening ham xatolaringni tuzatib tursam, yaxshi narsalarga o‘rgatsam, yaxshi odobli bo‘lib voyaga yetasan, gaplarimga quloq solmasang, ikkinchi daraxtga o‘xshab egri bo‘lib voyaga yetasan debdi. Ko‘rinib turibdiki, ota-onaning farzandiga bergen tarbiyasi uni barkamol bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xonadonida qadim-qadimdan qizlar tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelingan.

Odobli va epli qiz – oila baxti deb bekorga aytilmagan. Qiz bolaning xulqi, obodi, mehnatsevarligi, tarbiyasi hamisha diqqat markazida bo‘lgan. “Bir qizga yetti mahalla ega” degan naqlning yashab kelayotganligi, bu masala ijtimoiy ruh kasb etganidan dalolatdir.

Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniqla benixoyadir. Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo‘lga qo‘yishda, chinakam izchil tarbiyani, oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar. Hayotning achchiq-chuchugini ko‘rgan, og‘ir sinovlarga bardosh bergen keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas’uliyat bilan qaraydigan kishi bo‘lmasa kerak. Ular insoniyat

abadiy zanjirida o‘tmishda erishilgan boy ma’naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazuvchi bebaho xalqdir.

Biz ajoyib yozuvchilar, olimlar, buyuk mutafakkirlarning biografiyalariga nazar tashlar ekanmiz, ularning o‘sib yuksalishida, insoniyat tarixida buyuk kishilar bo‘lib yetishishlarida buvi va buvalarining katta hissasi borligini ko‘ramiz.

Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyasi deb hisoblaydi. Bolalarni mehnatga muhabbat qo‘yib o‘sishida oiladagi ijtimoiy muhit katta rol o‘ynaydi. Bunda otanonalar, barcha oila a’zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning axloqiy shakllanishi, mehnatsevarlik, ilmgina intilish, o‘z xalqining an’analrini hurmat qilish, o‘z vataniga sodiqlik, jasurlik, tarbiya ko‘rinishlari kamol topadi.

Binobarin, oila xalqimiz uchun eng muhim hayotiy qadriyat va barkamol avlodni voyaga etkazishda asosiy omil hisoblanadi. Oila institutini rivojlantirish va bu sohada samarali siyosatni amalga oshirishga doimiy qaratilayotgan ulkan e’tibor tufayli mustaqillik yillarida oilalarning farovonligi va turmush tarzi yanada yaxshilandi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari mustahkamlandi. Shu ma’noda, o’zbek xalqining o‘z shaxsiy huzur-halovatidan ko’ra, oila sha’nini yuqori qo‘yishi, qarindosh-urug’lari va yaqinlariga, qo’ni-qo’shnilariga g’amxo’rlik qilishi – oliy darajadagi qadriyat bo‘lib, bu albatta, oilaviy muhitni mehr-muhabbat, oqibat va samimiyatga to’ldiradi. Ana shunday yuksak qadriyat shakllangan oilada kamol topgan kishi davlat va jamiyat ishida ham yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida xizmat qiladi. Abdurauf Fitrat bunday uyg’unlikning ijtimoiy mohiyatini ta`riflab, “Oila va oila boshqarish tartiblari” nomli asarida shunday yozadi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog’liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam bo‘ladi”<sup>1</sup>.

Oila haqida alohida fan yo‘q, lekin oilaning turli jihatlarini o’rganish bilan 10 dan ortiq fanlar shug’ullanadi. Bu fanlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat. Oila va oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – B.25

Etnografiya – nikoh oila munosabatlarini xalqlar turmush tarzining bir tabaqasi sifatida o`rganadi.

Aholishunoslik - demografiya - aholining hamda uning asosiy bo`g`ini bo`lmish, oilaning turli xil muammolarni siyosiy-ijtimoy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar asosida o`rganadi.

Iqtisod fani bilan statistika fani, oila byudjeti oila ishlab chiqarishi, oilaviy iste'molni, mehnat taqsimotini, oiladagi xo`jalik iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etish bilan shuqullanadi.

Psixologianing vazifasi - asosan nikoh-oila munosabatlarida namoyon bo`ladigan xissiyot, tasavvur urf-odatlarni ruhiy xodisalarning ijtimoiy tabiiy manbalarini o`rganishdan iborat.

Oila pedagogikasi - oilaning bolalarga ko`rsatadigan ta'sirini oiladagi tarbiya qonuniyatlari, vositalarini ota yoki onaning bolaga ta'siri, oila va uning boshqa tarbiya muassasalarining o`zaro munosabatini aniqlashdir.

Tibbiyot fani - nikohning fiziologik jihatlarini va ularning oqibatlarini, oila a'zolarining sog`ligiga ta'sirini tadqiq qiladi.

Huquqshunoslik - oila nikoh va oila to`g`risidagi qonunlarni va oilaning ijtimoiy hayotga munosabatini o`rganib huquqiy qoidalarni asoslab beradi. Oilaning vujudga kelishi uzoq o`tmish bilan O`rta Osiyo xalqlarida oilaning eng dastlabki tarixiy shakli patriarxal oila tarzida vujudga kelgan. Bu oila ayni zamonda jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo`lgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga xar bir oila a'zolarining xatti-xarakatlariga alohida e'tibor berilgan. Patriarxal oila, eramizdan oldingi bir ming yilliklarda vujudga kelgan. Uning rivojlangan davri eramizning birinchi asriga to`g`ri keladi. Eramizning bir ming yilligi o`rtalarida kichik-kichik oilalar tarkib topa boshladi. Nikoh-bu erkak bilan ayol o`rtasidagi muayyan ittifoqning va bu ittifoqning jamiyat davlat tomonidan tan olinishi va maqullanishining tarixiy shaklidir

O`zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» (1998 yil 30-aprelda tasdiqlangan) 2-bo`lim 3-bobga asosan nikoh tuzish tarkibi va shartlari masalalarini yoritishga qaratilgandir. Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol

o`rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Er-xotin, ota-onalari farzandlar orasida axloqiy majburiyatlar o`rnatadi. Nikoh so`zi (arabcha-qo`shilish) o`zbek tiliga arablardan kirib kelgan. O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasiga binoan “Nikoh fuqorolik xolatini dalolatnomalarining ro`yhatidan o`tkazish yuklatilgan davlat organlarida qayd etiladi, shunday nikohgina huquq va majburiyatni vujudga keltiradi”<sup>1</sup>. O`zbekiston Respublikasida nikohni uning ijtimoiy mohiyati, maqsadiga ko`ra oilani mustaxkamlash ehtiyojini yosh avlodni axloqi, sihat-salomatligini xisobga olib, bir qator shartlarga amal qilgan holda tuzish zarurligi belgilanadi. Bu talablar nikohdan o`tish shartlari deyiladi.

Xalqimizda nikoh eng avvalo arshi a'loda o`qilib, keyin yerda, degan naql behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo`yicha, nikoh axloqiy axd bo`lib, oila muqaddasdir. «Xotinlaringiz-ziroatlariningizdir» deyiladi. Qur'oni Karimning Baqara surasi - 223 oyatida. Nikohdan o`tib oila qurishdan asosiy maqsad inson avlodining davomiyligidir. Nikohga kirishda yanglishmaslik, mustaxkam oila tashkil topishga olib keladi. Ahil, totuv yashash, halol mehnat muxabbatga asoslangan oila jamiyatning munosib avlod, axloqi pok jamiyat ishiga, taraqqiyotimizga, mustaqilligimizga sadoqatli inson tarbiyalab etkazishda muxim rol o`ynaydi. Qadimdan Sharq oilalari yigit-qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashga alohida e'tibor bergenlar yigitlar alohida, qizlar alohida maxsus enaga-tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanganlar.

Xulosa qilinadigan bo`linsa, oilaviy tartib-intizom masalalari uning huquqiy vazifalarini ham belgilaydi. Bunda, eng muhimi, xonardonning har bir a`zosi o`ziga xos ichki intizom madaniyati, burchi va mas`uliyatini anglashi bilan birga oilaviy muhitda o`z o`rnini belgilay olishi, oilaviy munosabatlarni hurmat qila bilishi, uydagi iqtisodiy imkoniyatni hisobga olgan holda ish yuritishi, oilada samimi bo`lishga intilishi lozim.

Bunda o`zaro hurmat va qattiq tartib bo`lmasa, oilaning barcha a'zolari o`z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko`rsatmasa

---

<sup>1</sup> Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2015. – B. 123.

yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o`zining ko`p asrlik mustaxkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo`ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-extiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O`zbeklarning aksariyati o`zining shaxsiy farovonligi to`g`risida emas, balki oilasining qarindosh-urug`lari va yaqin odamlarining, qo`schnilarining omon-esonligi to`g`risida g`amho`rlik qilishni birinchi o`ringa qo`yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbini gavxaridir.

## **II-BOB. Bugungi globallashuv davrida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashning o`ziga xos shart-sharoitlari**

### **2.1. O`zbekiston Respublikasi davlat siyosatida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalash masalasi.**

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda sog`lom ona – sog`lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu bois ham O`zbekiston Respublikasi qo‘silgan birinchi xalqaro hujatlardan biri 1992 yil 9 sentabrda parlamentimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya bo‘lgan bo‘lsa, keyinroq esa “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mamlakatimizda ilk ordenlardan biri “Sog`lom avlod uchun” ordenining ta’sis etilishi ham o‘ziga xos tarzda ramziy ma’noga ega. Shu asosda mamlakatda sog`lom ona – sog`lom bola masalasiga oid keng ko‘lamlı umummilliy dasturlar doirasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Zero, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlar, mamlakatimizning buyuk kelajagi, ertangi kuni, erkin va farovon hayotimiz, O`zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi, avvalambor, barkamol avlod, o‘sib kelayotgan yoshlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishi bilan bog‘liqdir.

Shuningdek, donishmandlarning fikricha, har qanday mamlakatning ayollarga, yoshlarga munosabatidan uning ma’naviy darajasi qanday ekanligini bilib olish qiyin emas. Bu jihatdan O`zbekistonni jahonga ibrat qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Ma'lumki, ayolga va o‘sib kelayotgan yosh avlodga bo‘lgan e’tibor, bu – jamiyatning ertasi va kelajagiga e’tibor demakdir. Mustaqillik yillarida oila, onalik, bolalik masalalari O`zbekiston taqdiri va kelajagi bilan uyg‘un holda islox etildi. Barkamol avlod tarbiyasi, mamlakatda barqaror tenglik va xavfsizlikni ta’minlash, farovon hayotni barpo etish muhim ahamiyat kasb etdi. Olib borilayotgan barcha ezgu ishlar zamirida onalik va bolalikni himoya qilish, O`zbekiston xalqi uchun muqaddas qadriyatga aylangan oila institutini yanada mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

“Oila” (XIV bob)<sup>1</sup> deb nomlangan mahsus bobning kiritilishida ham juda katta ma'naviy-falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy ma'no bor. Oilaning davlat muhofazasida bo‘lishi, ota-onalarning o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning esa o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburligining belgilanishi esa O‘zbekiston jamiyatida inson, uning manfaatlari ustuvorligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda 1998 yilni “Oila yili”, 1999 yilni “Ayollar yili”, 2000 yilni “Sog‘lom avlod yili”, 2001 yilni “Onalar va bolalar yili”, 2008 yilni “Yoshlar yili”, 2010 yilni “Barkamol avlod yili”, 2012 yilni “Mustahkam oila yili”, 2013 yilni “Obod turmush yili”, 2014 yilni “Sog‘lom bola yili” deb e’lon qilinishi aslida jamiyatning ayol zotiga, millat kelajagi bo‘lmish bolalar sog‘lig‘i, ularning barkamolligi yo‘lidagi sa'y-harakatlar majmui edi.

Buning natijasida Prezident I.A. Karimov tomonidan 2016-yilni "Sog‘lom ona va bola yili"<sup>2</sup> deb e’lon qilinishi ham yurtimizda o‘zbek ayollari, onalar, yoshlar hamisha e’tiborda ekanligidan dalolat beradi. O’tgan yillar davomida mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida dadil qadamlar tashlandi. Olib borilayotgan islohotlar natijasida qishloqlar, shaharlar qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda. Ishlab chiqarish va sanoat jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. O‘zbekistonda dunyoning rivojlangan industrial mamlakatlaridan qolishmaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamонавиј корхонalar ishga tushirilib, ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilinmoqda, mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligi o‘sib bormoqda.

Mamlakatda onalar va bolalarni e’zozlash butun jamiyatning eng dolzarb vazifasiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi, Fuqarolik kodeksining 17-moddasida, Oila kodeksining 2-moddasi, Mehnat kodeksining 6-moddasida xotin-qizlarning jamiyatda tutgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy o‘rni belgilab berildi. Shuningdek, O‘zbekiston

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – В.11

<sup>2</sup> Каримов И.А. Асосий вазифамиз-жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация килиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2015 йил 6 декабрь

Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 apreldagi “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1096-sonli hamda 2009 yil 1 iyuldagagi “2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1144-sonli hamda 2014 yil 1 avgustdagagi “2014-2018 yillarda O‘zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o‘smlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish borasidagi Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2221-sonli Qarorlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatda Prezident I.A. Karimov rahnamoligida yosh avlodni sog‘lom, barkamol etib kamolga yetkazish, onalik va bolalikni muhofazalash, aholi reproduktiv salomatligini saqlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘ziga xos samara bermoqda. Yurtimizda onalik va bolalikni muhofazalash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, millat genofondini mustahkamlashga yo‘naltirilgan keng ko‘lamlı tadbirlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Keyingi o‘n yilda mamlakatda onalar o‘limi koiffitsienti 33,1 promilledan 19,7 promillega, bolalar o‘limi koiffitsienti esa 18,9 promilledan 10,1 promillega tushgani, tug‘ma va irsiy kasalliklar bilan tug‘iladigan bolalar soni qariyb ikki barobar kamaygani ana shu sa‘yi-harakatlar natijasidir. Bolalarni ko‘krak suti bilan oziqlantirishni keng targ‘ib etish, homilador ayollarga va chaqaloqlarga integrallashgan usulda tibbiy xizmat ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada onalar va bolalar salomatligi yaxshilanib, bolalar o‘limi va kasalliklarining oldini olishga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi bu yo‘nalishda jahon miqyosida amalga oshirilayotgan xayrli tashabbuslar va loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda.

Mamlakatda zamonaviy tibbiyot muassasalari tarmog‘i, shu jumladan, respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya, akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy markazlari, perinatal va skrining markazlari, tug‘uruqxona majmualari, hududiy ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markazlari, qariyb 3200 dan ziyod qishloq vrachlik punktlari tashkil etilgan. O‘zbekistonda bolalar salomatligini mustahkamlash

borasida amalga oshirilayotgan izchil ishlar ularning 98 foizini yuqumli kasalliklarga qarshi har yili emlashni ham o‘z ichiga olgan. Shu tufayli qator kasalliklar, birinchi navbatda, bolalarga yuqadigan xastaliklar mamlakatda ko‘p yillardan buyon qayd etilayotgani yo‘q.

Yurtimizda yosh avlodni yuksak ma’naviyatli komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatda sog‘lom muhitni qaror toptirishning asosiy vositasi sifatida sportni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatning barcha hududlarida, xususan, chekka qishloqlarda ham bunyod etilayotgan zamonaviy sport majmualarida o‘g‘il-qizlarimiz sport bilan muntazam shug‘ullanib, o‘z salomatliklarini mustahkamlamoqdalar. Keyingi yillarda respublikada bolalarning bo‘yi o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘rtacha 3 santimetr, qizlar o‘rtasida esa 2,9 santimetr o‘sgan. Hozirgi vaqtida 92 foiz o‘g‘il-qizning vazni va bo‘yiga doir ko‘rsatkichlari “Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti” standartlariga to‘la mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida sog‘lom ona masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylangani, keng ko‘lamli umummilliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlar haqida to‘xtalib: “Qiz bolani kollejni bitirmasidan, hunar egallamasidan turib, kimki turmushga bermoqchi bo‘lsa, bilib qo‘yinglar, buni men uzoqni ko‘rmaslik, kaltabinlik deb hisoblayman. Qiz bola, avvalo, kasb egallasin, o‘z fikriga ega bo‘lsin, hayotni anglasin. Shundan keyin u hayotda o‘zining munosib o‘rnini topadi, jamiyatimizning faol a’zosiga aylanadi, ertaga u quradigan oila ham mustahkam bo‘ladi. Bu mening eng katta orzuim va tilagimdir”<sup>1</sup> deb ta’kidlaganlarida chuqur ma’no-mazmun mujassam.

Jamiyat tayanchi, sog‘lom, barkamol avlodni dunyoga keltiruvchi hamda tarbiyalovchi ayolga mehr-ehtirom ko‘rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridandir. Chunki O‘zbekiston hududida azal-azaldan xotin-qizlar, ularning ma’naviy-axloqiy sifatlari e’zozlab keligan. Xotin-qizlar jamiyatni

<sup>1</sup> Каримов И.А. Асосий вазифамиз-жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлашириш, мамлакатимизни модернизация килиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2015 йил 6 декабрь

poklantiruvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi, oila farovonligi va barqarorligini ta'minlovchilar hisoblanishgan. Hayot davomiyligining asosi bo'lgan ayolni, naslimiz davomchisi bo'lmish farzandlarimiz salomatligini asrash – bu millatni, xalqni asrashdir.

Bugungi kunda sog'lom ona – sog'lom bola degan ulug' g'oyani barcha yurtdoshlarimizning qalbi va ongiga chuqur singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi tom ma'noda umummilliy harakatga aylandi. Sog'lom avlod deganda, avvalambor sog'lom naslni tushunamiz. Sog'lom bola, sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabiga, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog'lig'iga juda katta e'tibor bergenini ko'ramiz. Mamlakatda o'tgan yillar davomida bolalarning sog'lom tug'ilishi va sog'lom ulg'ayishi uchun keng sharoitlar yaratildi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalar sportini rivojlantirish kabi sohalardagi izchil islohotlar bir-birini to'ldirib, uzviy tizim shaklini oldi. Bugun zamonaviy tibbiy markazlar, ta'lim muassasalari, sport inshootlari har jihatdan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Ayni paytda bolalar sportining rivoji sog'lom avlodni tarbiyalashning yana bir muhim vositasiga aylandi. Barcha hududlarda, xususan, chekka qishloqlarda bunyod etilgan zamonaviy sport majmularida 2 milliondan ziyod bola sportning 30 turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Bu jarayonga qizlarni jalb etishga, ularning salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida “Ommaviy madaniyat”ning ta'sir doirasi muttasil ravishda kengayishi, shubhasiz, oila, ota-onasi va farzand o'rtasidagi munosabatlarga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ayrim hollarda ba'zi yoshlарimiz tabiatida radikal kayfiyatning jumladan, betgachoparlik, tarbiyasizlik, bachkanalik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelayotganligi oddiy hol bo'lib qolmoqda. Ayrim yoshi ulug'lar esa turmush, hayot tashvishlarini bahona qilib oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasi ertangi kunimizning taqdiri va qismati bilan bog'liqligini esdan chiqarib qo'ymoqdalar.

Bu o‘rinda yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ta’sirlarni o‘rganishga kompleks tizimli yondashishda quyidagi ma’naviy tarbiya yo‘nalishlarga alohida e’tibor berish lozim:

- Tarbiya turlari;
- Tarbiya usullari;
- Tarbiya vositalari;
- Tarbiya omillari;
- Tarbiya jarayoni.

Bugungi kunda oila va mahallada ma’naviy tarbiya yo‘nalishlarini takomillashtirib borish asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya, mahalla va ta’lim muassasalaridagi ma’naviy muhitdan boshlanadi. Bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan oila, mahalla va ta’lim muassasalari muhitida kamol topadi.

Insonni oiladan, oilani jamiyatdan ayricha tasavvur etish qiyin. Oila farzandlarni tarbiyalash va kelajagi uchun mas’uldir. Zero, inson tabiatini va dunyoqarashidagi barcha yaxshi xislatlar, avvalo, oilada kurtak yozadi. Oila - hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta’minlovchi qadriyatlar beshigi, kelajak nasllar uchun betakror tarbiya maskanidir. Shu bois mamlakatimizda barcha xayrli ishlar, ezgu amallar, avvalo, oilalarni mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning yorug‘ kelajagini ta’minlash maqsadini ro‘yobga chiqarilmoqda. Zero, oilada shakllangan sog‘lom muhit farovon turmush, osuda hayot tarzimizning mustahkam poydevoridir. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bugun yashab turgan davr o‘zining shiddati, munosabatlarning bir qolip doirasiga sig‘masligi, amalga oshirilayotgan har qanday xatti-harakat va tadbirlarning keskinligi va shijoatga egaligi kabi xususiyatlari bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Uning bunday xususiyatga egaligi, avvalo, bugun dunyoda kechayotgan globallashuv va informatsion jarayonlar bilan bog‘liqdir.

Xulosa qilinadigan bo‘linsa, sog‘lom bola, avvalo, sog‘lom va axil oilaning mevasidir. Sog‘lom bolaning tug‘ilishi, birinchi navbatda, onaning sog‘lig‘iga

bog‘liq. Bo‘lajak ona farzandini to‘qqiz oy bag‘rida avaylab-asrab, yorug‘ dunyoga keltiradi. Bu jarayonda ayol qanday ruhiy holatni boshidan kechirsa, bu albatta, uning vujudi orqali bolaga ta’sir qiladi. Shu bois ona salomatligini mustahkamlash ertangi kun vorislari salomatligini saqlash demakdir. Sog‘lom, barkamol avlod jamiyat tayanchi bo‘lib, farzandlarimizning salomatligi ko‘p jihatdan oilaga bog‘liq. Shunday ekan, oilalarda tibbiy madaniyat yanada yuksalsa, ayollar salomatligiga e’tiborli bo‘linsa, naslimiz davomchisi bo‘lgan bolalarning sog‘lom bo‘lishiga erishamiz.

## **2.2. Bugungi globallashuv davrida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta`lim muassasalarining o`rni.**

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri, xususan, fuqarolik jamiyatining negizi bo`lmish oila, mahalla hamda ta`lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, yoshlarni barkamol insonlar etib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir”<sup>1</sup> nomli kitobida yoshlarni har tomonlama sog`lom va barkamol etib voyaga yetkazishda oldimizda turgan ustuvor vazifalar haqida to`xtalib, “Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo`lib qolmoqda. Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o`zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo`lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallahsga qaratilgan g`arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo`lishga da'vat etishi tabiiyidir. Shu sababli yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor”, deb ta'kidlagan.

Darhaqiqat, yoshlar ta`lim-tarbiyasi, sog`lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, sport bilan shug`ullanishi, zamonaviy bilimlarni, kasb-hunarlarini egallashi, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etish orqali sog`lom turmush tarzini qaror toptirishda fuqarolar yig`inlarining ta'siri tobora oshib bormoqda. Bu o'rinda ayniqsa, oila, mahalla va ta`lim muassasalarining o`zaro hamkorligi muhim ahamiyatiga ega. Har bir millat va xalqning azaliy orzu istaklaridan biri bu kelajak avlodni sog`lom, barokamol qilib tarbiyalashdan iborat. Bu jabhada yurtimizda

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 53.

amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat jamiyatimiz hayotida, balki bir qancha xorijiy davlatlarda ham namuna qilib qo‘llanilmoqda. Yosh avlod tarbiyasida oila, mahalla, ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyosdir, zero bu ijtimoiy tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi tizimli va doimiy yo‘lga qo‘yilgan tarzda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Yurtimizda mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va roli azaldan ota-bobolarimiz tomonidan anglab yetilganki, uning tarixi uch yarim ming yildan oshiqni tashkil etadi.

Oila, mahalla, ta’lim muassasalari - haqiqiy ma’naviy tarbiya omili sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinli “Bilimga chanqoq, iste’dodli yoshlarni topib ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash barchaning muqaddas vazifasidir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, bugun bizga ma’naviyati teran, o‘z mustaqil fikriga ega yoshlar kerak. Ushbu muhim strategik vazifani hal qilish hozirgi kunda ko‘p jihatdan oila, mahalla, umumta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyatni institutlarining birgalikda samarali faoliyat olib borishini talab etadi. Chunki yoshlar ma’naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e’tiqodiga aloqador ko‘nikmalar majmui asosan oila, mahalla va ta’lim muassasalarida shakllanadi. Ayniqsa, bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish bu tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillardan boshlab, uni moddiy olam bilan tanishtirish hamda milliy an'analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim. Yoshlarda bolalikdan boshlab sog‘lom e’tiqod, yuksak ma’naviy dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma’rifatli, mustaqil fikrli va barkamol inson bo‘lib voyaga yetadi. Chunki yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o‘tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo‘lib, so‘z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo‘lgan ayrim holatlar yoshlarning hali to‘liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho‘chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Lekin ayrim ota-onalar farzandi tarbiyasini ta’lim

<sup>1</sup> Каримов И.А.Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 11

muassasalari yoki jamiyat zimmasiga ag‘darib qo‘yib, o‘g‘li-qizi taqdiri bilan qiziqmay, “Peshonasida borini ko‘radi” deb loqaydlik qilishmoqda.

Shuningdek, bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning xulq – atvoriga, ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi omillar asosan quyidagilar:

- internet orqali kirib kelayotgan turli hayosiz, pornografik mazmundagi axborot vositalari (disklardagi filmlar, kliplar, qo‘l telefonlaridagi rasmlar va hokzolar) yoshlarga ma'naviy tahdidlarni olib kelmoqda;
- yoshlar orasida “omnaviy madaniyat”ga qiziqishning ortishi va internetdan tarqatilayotgan noto‘g‘ri axborotlar;
- nosog‘lom turmush tarzi (ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya va boshqalar);
- zo‘ravonlikka asoslangan kompyuter o‘yinlari;
- ota-onalarda tarbiyaviy saviyaning pastligi;
- nazoratsizlik va qarovsizlik (ijtimoiy yetimlik);
- ta’limga bo‘lgan qiziqishning pastligi;
- farzandni ota-onsa tomonidan haddan tashqari erkalatish;
- moddiy muammolar tufayli kelib chiqadigan ziddiyatlar;
- farzandidagi o‘zgarishlarni sezmaslik, befarqlik va loqaydlik;
- bo‘sh vaqtning besamara o‘tishi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning ma’nana yetuk, jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi uchun avvalo ularga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish lozimdir. Bu esa, o‘z navbatida, oila, mahalla, ta’lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, umuman har bir fuqarodan mas’uliyat, fidoiylikni talab etadi. Shu jihatdan olganda, oila, mahalla va ta’lim muassasining asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya, mahalla va ta’lim muassasalaridagi ma'naviy muhitdan boshlanadi, o‘z oilasi, mahallasi va ta’lim muassasasini qadrlamagan inson Vatanini ham qadrlashi qiyin kechadi. Oilta, mahalla va ta’lim muassasasi muhiti yoshlar ma'naviyatini shakllantiruvchi omil sifatida yetakchi o‘rinda turadi. Bugungi kunda tarbiyaning

barcha yo‘nalishlari va sohalarining yaxlitligini talab etadigan tarbiyaviy ishlarga kompleks, tizimli yondashuvni ta‘minlash dolzARB ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ta’sirlarni o‘rganishga kompleks tizimli yondashuv yo‘nalishlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Tarbiya turlari – badan tarbiyasi, axloq tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, ma’naviy tarbiya.
2. Tarbiya usullari – individual usul, jamoaviy usul.
3. Tarbiya vositalari – fan, adabiyot, madaniyat, san’at, teatr, kino, radio, televidenie, matbuot, axborot texnologiyalari, internet.
4. Tarbiya omillari – oila, maktab, mahalla, ijtimoiy muhit.
5. Tarbiya jarayoni – o‘qishgacha bo‘lgan vaqt, o‘qish vaqt, ish vaqt, ishdan keyingi bo‘sh vaqt.

Demak, yoshlar ma’naviy tarbiyasiga qaratilgan ta’sirlarni o‘rganishda tizimli yondashuv yo‘nalishlari asosida ularni qiziqtirgan masalalar, hayotiy istaklar, bandlik va bo‘sh vaqtni to‘g‘ri tashkil etish kabi masalalarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o‘z navbatida, yoshlarni ma’naviy tarbiyalash samaradorligini oshirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo‘lgan «jangari» o‘yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik davr talabidir. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o‘yinlar, o‘yinchoqlar, rasmi li kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalar tarbiyasining to‘g‘ri shakllanishida asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Shu bois oila muqaddasligini, butunligini saqlash, farzandlarimizni vatanparvar, insonparvar, yuksak ma’naviyatli, odob-axloqli va barkamol etib tarbiyalashga intilishimiz zarur. Bu o‘rinda tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa’yi-harakatlarini birlashtirish maqsadida oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi yoshlarni ma’naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalash uchun keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim ahamiyatga ega.

Oila va mahallada ma'naviy tarbiyani takomillashtirib borish asosiy masalalardan biri hisoblanib, bu ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan ham qayta-qayta ta'kidlab kelingan. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish har bir davr uchun dolzARB vazifa bo‘lib qolaveradi. Jamiyatimizning demokratik qadriyatlari oila, mahalla va ta'lIM muassasalarida o‘z ifodasini topgan. Darhaqiqat, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan oila, mahalla va ta'lIM muassasalari muhitida kamol topadi. Bu borada oila, mahalla va ta'lIM muassasalarida ma'naviy tarbiyani shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Yurtimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va dunyoda kechayotgan voqeahodisalar internetdan tarqatilayotgan noto‘g‘ri axborotlar yoshlarni turli xil ma'lumotlar girdobida qoldirib, fikrining chalg‘ishiga sababchi bo‘lmoqda. Demak, bunday sharoitda har bir oiladan ota-on, farzandini jalb qilgan holda mahalla va ta'lIM muassasalarida “ma'naviyat o‘quv soati” (haftada yoki oyda bir marta) darslarini tashkil qilish va ularga mazkur voqeahodisalarning mazmun-mohiyatini yoritib berish maqsadida turli sohaning yetuk mutaxassislarini jalb qilish;
- Mahalla va ta'lIM muassasalarida ma'naviy muhit monitoringini olib borish, uning faoliyatini yanada takomillashtirish, ba'zi oilalardagi ma'naviy muhit, farzandlar tarbiyasida ko‘zga tashlanayotgan ayrim noxush holatlarning oldini olishga e'tibor qaratish;
- Ota-on, mahalla faollari va ta'lIM muassasalari xodimlarining har bir ishda amaliy namuna ko‘rsatishlari ma'naviy tarbiyaning yanada takomillashishiga hamda talab darajasida bo‘lishiga yordam beradi.

Shu jihatdan olganda, oila, mahalla va ta'lIM muassasining asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya, mahalla va ta'lIM muassasalaridagi ma'naviy muhitdan boshlanadi, o‘z oilasi, mahallasi va ta'lIM muassasasini qadrlamagan inson Vatanini ham qadrlashi qiyin kechadi. Oila, mahalla va ta'lIM muassasasi muhiti shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi omil sifatida yetakchi o‘rinda turadi. Bundan tashqari, har bir oila, mahalla va ta'lIM muassasasi jamiyat

rivoji asosida zamon talabiga mos barkamol avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etadi.

Darhaqiqat, inson o‘z oilasi, mahallasi, ta’lim muassasasida mehr-muhabbat, hurmat, e’tibor qozonadi va ularning panohida himoyalanadi. Shunday ekan, har bir oila, mahalla va ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiyani milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib olib borish katta ahamiyatga ega. Yoshlar tarbiyasini majburlash asosiga qurib bo‘lmaydi, muhimi bola undan so‘ralayotganini o‘zi xohlab bajarishidir. Haqiqiy tarbiyachi bolani erkin qo‘yadi, kamsitmaydi, aksincha, rag‘batlantiradi. Bunga erishish uchun tarbiyachi avvalo o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi, o‘zgalarga mehribonlik, atrofidagilargaadolatli munosabatda bo‘lishi talab etiladi. Bolalarda taqlid qilishga rag‘batni uyg‘otuvchi katta yoshdagi oila a’zolarining namunasi oilaviy tarbiyadagi eng ta’sirchan omillardan biridir.

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Ma'lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, axillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan habar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalombor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan... Mahallaning xalq ma’naviyati bilan bog‘liq jihatlari haqida so‘z yuritib, ularni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazib, atroflicha tahlil qilar ekanmiz, hyech ikkilanmasdan aytish kerakki, biz har qaysi xonodon, butun el-yurtimizdagim ma’naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo‘lsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida oynadek yaqqol ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz.

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanib, globallashuv jarayonlari, turli madaniyatlar va qarashlarning ta’siri doirasi kengayib bormoqda. Ana shunday sharoitlarda bizning mentalitetimizga mos bo‘lмаган odatlar, buzg‘unchi fikr va g‘oyalarni mahallalarimizga, xalqimiz, yoshlarimiz hayotiga olib kirishga bo‘lgan

urinishlar kuzatiladi. Ana shunday sharoitda har bir millatning o‘z turmush tarzini, urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolishi o‘ta muhimdir.

Bunda fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha bilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zgalarning madaniyatiga, ularning turmush tarziga mahliyo bo‘lib, o‘zlikni boy berishdek keng tarqalayotgan eng yomon kasallikdan yoshlarni asray olishdek dolzarb vazifani amalga oshirishda mahalla institutlarining o‘rni benihoya kattadir.

Mahalla institutlari bu masalalarda butun jamoatchilikning fikrini o‘rganib, uni ta'lim-tarbiya maktabi darajasiga ko‘tarib tizimli faoliyat olib borishlari zamon talabidir. Albatta, biz faqatgina ota-bobolarimizdan qolgan moddiy-ma'naviy meros va qadriyatlarni bilish, ularga amal qilish bilan cheklanmasdan,zamon bilan, davr bilan, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan hamkorlik qilgan holda, ularning ilg‘or, milliy umuminsoniy demokratik qadriyatlарimizga mos keladigan tajribalaridan unumli foydalanishimiz ham maqsadga muvofiqdir.

Mahallada ma'naviy ishlarning muhim va dolzarb yo‘nalishi—g‘oyaviy tarbiyadir. Bu esa farzandlar ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni milliy g‘oya ruhida maqsadli shakllantirishning ijtimoiy pedagogik jarayoni demakdir. Chunki mahallada kechadigan mafkuraviy ta'lim va tarbiya jarayonlari yoshlar dunyoqarashini bunyodkor g‘oyalar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo‘lgan sifatlarni kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bular yoshlarni g‘oyalarimizni va ularning o‘ziga xosliklari haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda mahalla—tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning ilk asosi, poydevoridir, ya'ni mahallalar oilalarni, oilalar esa kelajak avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Bugungi kunda yot g‘oya va mafkuralardan saqlanish ularga qarshi kurasha olish uchun mahallalarda aholi, ayniqsa yoshlar va uyushmagan yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini, nimaga qiziqishlari va qanday faoliyat bilan mashg‘ulliklarini chuqur o‘rganish talab etiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarni muntazam ravishda izchil va tizimli amalga oshirib borishimiz lozimdir.

Mahallalardagi ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, yoshlар, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni turli to‘garaklarga, sport musobaqalariga jalg etish;

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida turli tanlov va musobaqalarni doimiy o‘tkazib borish;

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar davomida ularni O‘zbekistonda kechayotgan ijtimioy-siyosiy jarayonlar bilan muntazam tanishtirib borish;

Mahallalarda yurtimizning eng ibratli, obro‘-e'tiborli kishilar—olimlar, yozuvchi va shoirlar bilan yoshlarning uchrashuvlarini, davra suhbatlari, muloqotlarini tashkil etish;

Mahalla fuqarolari ayniqsa yoshlarning muammolarini chuqur o‘rganish va aniqlangan muammolarni tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda bartaraf etish borasida jonbozlik ko‘rsatish;

Mahallalarda o‘tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, to‘y-marosimlarda, umuman mahalla hayotida diniy va dunyoviy qarashlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik;

Fermerlik, xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashga hissa qo‘shish;

Yoshlarimizning madaniy-tarixiy an'analarmizga hurmat, Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida ota-onalar va yoshlar bilan alohida-alohida uchrashuv va suhbatlar o‘tkazib borish;

Yoshlarimizni oilaviy hayotga tayyorlash ishlari bilan shug‘ullanish; Mahallalarning, oila va ta’lim muassasalari bilan tizimli va doimiy hamkorlik aloqalarini olib borishda, turli tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

Xullas, mahalladagi yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali va foydali o‘tkazishlariga ko‘maklashish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki yosh avlodning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish bu ijtimoiy nazorat mexanizmlaridan biri hisoblanadi va o‘z navbatida ijtimoiy taraqqiyotga ham ta’sirini ko‘rsatadi. Aslida ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiy tartibni talab etadi, ijtimoiy tartib o‘rnatalishi uchun ijtimoiy nazoratni kuchaytirish lozim bo‘ladi, ijtimoiy

nazorat eng birinchi navbatda oilada shakllantiriladi, oilada tartib bo‘lishi uchun mahallalarda tartib bo‘lishi talab etiladi.

Ijtimoiy nazorat o‘z navbatida ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadi, xalqimizning ijtimoiy buyurtmasi esa har tomonlama yetuk, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishdan iboratdir

Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Respublikamizda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirish uchun ushbu masalaga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Tizimli ravishda yoshlarni qiziqtirgan masalalar, hayotiy istaklar, yoshlar bandligi, yoshlar bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish kabi muammolarni hal qilish.

3. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarida turli davra suhbatlari, uchrashuvlarni (ibratli xonodon, mehnat va urush faxriylari, yozuvchi, shoirlar va boshqalar bilan) doimiy ravishda tashkil etish.

4. O‘quvchi-talaba yoshlarning o‘zlashtirishi davomati, tartib-intizomini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini davr talablari asosida takomillashtirish.

5. Hamkorlik asosida yoshlarda tadbirkorlik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha seminar treninglar o‘tkazish, ularning huquqiy ongi madaniyati va savodxonligini shakllantirishda turli xil konkurslar, musobaqalar, intellektual o‘yinlar tashkil etish.

6. Yoshlar muammolarini o‘rganish maqsadida mahalla va ta’lim muassasalarida ijtimoiy tadqiqotlar, sotsiologik so‘rovlар o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

Oila va mahallada ma’naviy tarbiyani takomillashtirib borish asosiy masalalardan biri hisoblanib, bu ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan ham qayta-qayta ta’kidlab kelingan. Shunday ekan, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish har bir davr uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolaveradi. Jamiyatimizning demokratik

qadriyatlari oila, mahalla va ta'lim muassasalarida o‘z ifodasini topgan. Darhaqiqat, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan oila, mahalla va ta'lim muassasalari muhitida kamol topadi. Bugungi kunda ushbu masuliyatli ishlar faoliyati bo‘yicha bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch omil, ya’ni “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi asosida tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yilishi o‘smirlar orasida turli huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etilishining, shuningdek, giyohvandlik, diniy ekstremizm, “ommaviy madaniyat” va shunga o‘xhash illatlarning oldini olishda, ularni sportga jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda qo‘l kelmoqda. Asosiysi, bu hamkorlik yoshlarni har tomonlama barkamol, ham jismonan, ham ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashda, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda hal qiluvchi kuchga aylangan.

Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq keladi:

1. Yoshlarga oid faoliyat bilan shug‘ullanadigan davlat va nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to‘la foydalanish.
2. Yoshlar faoliyati bilan bog‘liq ma’naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlanadirish va bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish, mahallalarda yoshlarga ibrat bo‘ladigan urf-odat, an'analarni keng targ‘ib etish maqsadida televideniya, radio, ommaviy axborot vositalari orqali muntazam chiqishlar, tadbirlar tashkil etish.
3. Maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurtlarida bevosita ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar faoliyatini yanada kuchaytirish hamda yoshlar nazoratini amalga oshirishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini yanada keng yo‘lga qo‘yish uchun ularda har oyda yoki uch oyda bir marta “ochiq muloqot kuni”ni belgilash. Shuningdek, ta'lim muassasalariga surunkali kelmaydigan o‘quvchi-yoshlarni ta'lim muassasalari, mahalla faollari hamda hamkorlik kengashi yordamida o‘qishga jalb etish, tarbiyasi og‘ir yoshlar,

farzandlari tarbiyasiga e'tiborsiz ota-onalar bilan surunkali va individual ishlash, ularga pedagogik maslahatlar berib borishni tizimli tashkil etish.

4. Yoshlar turmush tarzi, ruhiyati va qiziqishlarini davomli o'rganadigan psixologik markazlarni tashkil etish va ular ishini maxsus reja, dastur asosida olib borish.

5. Yoshlar ishtirokida “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi kinofilmlar, multfilmlar, videoroliklar, qo‘shiqlar, rasmlarni tarbiyaviy ahamiyatini tanqidiy tahlil etish va yoshlarda mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish.

6. Yoshlar orasida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish jarayonida ularning yosh davrlari xususiyatini hisobga olish hamda mehnatsevarlik, intizom, mas'uliyat tuyg‘usini shakllantirish.

7. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun shart-sharoit yaratish, foydali mashg‘ulotlarga keng jalg qilish va turli ilmiy hamda sport to‘garaklari faoliyatini rivojlantirish.

8. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlash uchun ularni ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya, ma'naviyatsizlik, ommaviy madaniyat tahdidilaridan saqlash maqsadida mahallalarda, ta'lif muassasalarida doimiy ravishda yoshlar o‘rtasida terrorizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik kabi salbiy holatlarning havfini davra suhabatlari va uchrashuvlarda muntazam tushintirib borish.

9. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini tizimli va manzilli tashkil etish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularda tibbiy savodxonlikni oshirish.

10. Ota-onalarning barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik – pedagogik va fiziologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar, seminar – treninglarni mahalla, ta'lif muasasalari hamkorligida o‘tkazish hamda kerakli maslahatlar berish.

11. Oilada, mahallada yoshlardagi ijtimoiy faollik, o‘z ustida mustaqil ishslash, yangilikka intilish, tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash va yoshlar tadbirkorligiga yanada keng imkoniyatlar yaratish.

12. Mahallalardagi uyushmagan yoshlar bilan ishslashda fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tizimida “Yoshlar yetakchisi” lavozimini joriy qilish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

13. Sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun oilada bolalikdan boshlab ekologik tarbiyani shakllantirish, ularda atrof-muhit, ekologiyaga ongli munosabatni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida doimiy o‘tkazish, bola tarbiyasi namunali yo‘lga qo‘yilgan oilalar tajribasini hamkorlikda o‘rganish va ommalashtirish lozim.

Xulosa qilinadigan bo‘linsa, xilma-xil usullarda olib borilayotgan ta’lim va tarbiya ishlari jismonan sog‘lom, ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yangi ming yillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, balki intellektual salohiyati yetuk va yuksak ma’naviyatli yoshlar hal qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatda ta’lim va tarbiyaning uzlucksizligi, uzviyligini ta’minlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

## Xulosa

Sog‘lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni ma’naviy va jismoniy tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda asosiy yo‘nalish belgilab berildi. Respublikamiz hukumati tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e’tibor davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlaydigan zamonaviy mutaxassislarni yetishtirish hamda jismonan baquvvat, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, mard va jasur, vatanparvar, ma’naviyati yuksak, milliy g’oyani o’zida mujassam etgan shaxsni shakllantirishga e’tibor berila boshladи. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar qabul qilinib, qator dasturlar ishlab chiqildi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to’g’risida”gi Qonun hamda “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliyl dasturi”, sport sohasidagi “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasini tashkil etish to’g’risida”gi Farmoni va boshqa me’yoriy hujjatlar yoshlar bilan ishslash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirishni davlat miqiyosida muvaffaqiyatl amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Ulardan ko’zlangan maqsad yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o’rgatish, ularni ish bilan ta’minlash, sog’lig’ini asrab-avaylash, ma’naviyatini yuksaltirish, qobiliyati va madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyat manfaatlari yo’lida xizmat qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Bu borada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda oila instituti zimmasiga katta mas’uliyat yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek “Oila jamiyatning negizi”. Bizning davlatmizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin. Bunda o’zaro hurmat va

qattiq tartib bulmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko`rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o`zining ko`p asrlik mustaxkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo`ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-extiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O`zbeklarning aksariyati o`zining shaxsiy farovonligi to`g`risida emas, balki oilasining qarindosh-urug`lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to`g`risida g`amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliv darajada ma'naviy qadriyat, o`zbek oilasining o`ziga xos xususiyatining asosini tashkil etadi.

Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo`lmish yosh avlod va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masaladir. Ikkinchi tomondan jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo`lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Ota-onalarning oilada bolalarni xar tomonlama yetuk-barkamol taraqqiyotiga oid layoqatni oshirish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. O`zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o`xshash tomonlari ko`p, lekin shu bilan birga uning o`ziga xos jihatlari ham yo`q emas. O`zbek oilalarining o`ziga xos tomoni - hayo-iboning kuchliligidadir. Oilalarimizda sog`lom ma'naviy muhitni yaxshilash, xususan, er-xotin, ota-onsa va farzandlar, qaynona va kelin o`rtasidagi munosabatlar, qo'shnichilik munosabatlarining o`zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida bo`lishiga erishish – bu yurtimizdagи tinchlik-osoyishtalik va axillikni yanada mustahkamlashning eng muhim sharti ekanini doimo esda tutishimizni istardim”, degan fikrlari ayni paytda milliy qadriyatlarimizni ham asrab-avaylashimiz zarurligini anglatadi. Zero, xalqimizda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko`rsatish hayotiy qoidaga aylangan.

Darhaqiqat, hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarimiz oldiga qo'yilayotgan talablar yuksak hamda mas'uliyatlidir. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo`lishlarini orzu qilayotgan, barcha intilishlarimizni shu maqsadga yo'naltirgan ekanmiz, buning uchun, birinchi galda, ma'naviy tarbiya beradigan milliy g'oya masalasiga katta ahamiyat bermog'imiz asosiy vazifadir.

«Ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va oljanob g‘oyani jamiyatimizda teran anglash va qaror toptirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash, oila institutini mustahkamlashda davlat hokimiyyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishi yakunida quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq keladi:

- Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlar manfaatlarini ta’minlash, kuchli, barqaror va farovon davlat negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo‘naltirilgan qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- turmush qurayotgan yoshlarning nikohdan oldin to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tishini ta’minlash uchun tibbiyat xodimlari mas’uliyatini yanada kuchaytirish, shu asosda tug‘ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish, aholi o‘rtasida mustahkam oila qurish va sog‘lom farzand tug‘ilishi uchun nikohdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tishning muhimligini tushuntirish maqsadida keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;
- Oila muhitida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, farzandlar, ayniqsa, qishloq joylarida qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish;
- Mehribonlik uylari tarbiyanuvchilarini va kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun muzeylar, madaniyat va istirohat bog‘lariga ekskursiya uyushtirish, “Biz – mustaqillik farzandlarimiz” shiori ostida tarixiy shaharlarimizga sayohatlar tashkil qilish yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usini yuksaltirish;
- Bo‘lajak onalar – qizlarni jismonan sog‘lom va intellektual salohiyatli etib tarbiyalash, ularning akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta’lim olishi, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan,

- mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ishlarini izchil davom ettirish;
- Jismonan sog‘lom va ma’nan yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlar, ayniqsa, qizlarning iste’dodi va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish hamda ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish;
  - Bugungi globallashuv davrida sog`lom barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta`lim muassalarining hamkorligini yanada kuchaytirish;
  - Sog`lom avlodni tarbiyalashda ota-onalarning mas`uliyatini nihoyat darajada kuchaytirish.

Xulosa qilinadigan bo`linsa, oila jamiyatning eng ko`hna va muhim institutlaridan hisoblanadi. Oilada reproduktiv funksiya amalga oshiriladi. Keyinchalik esa, shaxsning ijtimoiylashuvi ham aynan oilada boshlanadi. Shuningdek, milliy an`analar, urf-odatlar, udumlarni idrok qilish va ularni o`zlashtirish ham oilaviy hayotda kechadi. Oila jamiyat hayotining poydevori hisoblanadi. Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz — mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O’zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o‘rin egallashi ham — bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o’sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir. Shunday ekan, qaysi jamiyatda oila instituti mustahkam bo`lsa, o`sha yerda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta`minlash muhim bir xususiyatiga ega bo`ladi.

## **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**

### **I. Rahbariy adabiyotlar :**

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: O'zbekiston, 1994.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, -T. 3. 1996.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. - Toshkent: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –Toshkent: O'zbekiston, 1999.
7. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2001.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.
12. Karimov I.A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.

13. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
14. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
15. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi // Xalq so‘zi, 2009 yil 14 fevral.
16. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir // O‘zbekiston ovozi, 2010 yil 28 yanvar.
17. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi” nomli ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2010 yil 13 noyabr.
18. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
19. Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2012.
20. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so‘zi, 2013 yil 7 dekabr.
21. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. T. 21. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
22. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati // Xalq so‘zi, 2014 yil 17 may.

23. Karimov I.A. Sog‘lom bola – jamiyat ko‘rki, mamlakat tayanchi // Xalq so‘zi, 2015 yil 25 fevral.

24. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliv saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

25. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi // Xalq so‘zi, 2015 yil 6 dekabr

26. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi, 2016 yil 16 yanvar.

27. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi // Xalq so‘zi, 2016 yil 7 dekabr

28. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

29. Miziyyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

## **II. Me`yoriy-huquqiy manbalar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun 2016 yil 24 sentabr // <http://www.lex.uz>

3. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. 1997 yil 29 avgust // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1997.

4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 yil 29 avgust // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 1997.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim va kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni tarbiyalash tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida” 1997 yil 6 oktyabrdagi PF-1869-son Farmoni. <http://lex.uz>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi. 2004 yil 21 may, PF-3431-sonli Farmon // Xalq so‘zi, 2001 yil 30 may.

7. “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi 2007 yil 24 yanvar // Xalq so‘zi, 2007 yil 25 yanvar.

8. “Yoshlar yili” Davlat dasturi 2008 yil 27 yanvar // Xalq so‘zi, 2008 yil 28 yanvar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 noyabrdagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1426-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-2124-sonli qaror.

11. “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi // Xalq so‘zi, 2014 yil 19 fevral.

12. “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi // [http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=2903502](http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=2903502)

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №175-sonli Qarori.

### **III. Ilmiy, o'quv adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev J. Ta'lismiz istiqlol yo'lida. – Toshkent: Sharq, 1996.
2. Yo'ldoshev J.G. O'zbekiston respublikasi ta'limi - taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Karimova V. 1998 yil – Oila yili. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Mavru洛 A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Quronov M. Uzluksiz ta'lim jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimi risola. – Toshkent, 2005.
6. Umumta'lim mакtablarida “Oila, mahalla, mакtab hamkorlik markazlari”ni tashkil etish haqidagi qo'shma buyruq. – Toshkent, 2008.
7. “Bir bolaga yetti qo'shni - ota-onas” shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar kompleksini tashkil etish to‘g‘risidagi qo'shma qaror. – Toshkent, 2008.
8. Ota-Mirzaev O.B., G'anieva M.X., Latipova N. Oila ma'naviyati. – Toshkent, 2007.
9. Karimova O.A., Akaeva N. Oila huquqi asoslari. – Toshkent, 2009.
10. Safarov O., Maxmudov M. Oila ma'naviyati. – Toshkent, 2009.
11. Niyozov G., Axmedov Q., Tojiboev Q. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
12. Bekmurodov A., G'afurov U., Mustafaqulov Sh., Kattaev N. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2010.
13. Topildiev O. Yoshlar – kelajak bunyodkorlari. – Namangan, 2013.
14. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiysi – Toshkent, 2012.
15. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent, 1998.
16. Imomnazarov M., Eshmuhamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – Toshkent, 2001.
17. Tulenov J. Ma'naviy yuksalish sari. – Toshkent, 2000. B. 100.

18. Nazarov Q. Shayxova X. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot.  
– Toshkent, 1992.
19. Ziyomuhhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – Toshkent, 2006.
20. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent,  
1996.

#### **IV. Internet materiallari:**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.mahallafond.uz/uz/library/577/7882/>
5. <http://sharh.uz/munosabat/item/438-oilada-farzand-tarbiyasi>